

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

Himoya qilishga ruxsat beraman
Tarix fakulteti dekani
_____ dots.S.X.G'oziyev
_____ 2013 y.

5140600 – tarix yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

“Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot”
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Qo'shmurodov Bunyod

Ilmiy rahbar: A.Majidov

BMI Umumiy tarix kafedrası yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № __ __. __. 2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

F.Toshboyev
(Ismi va sharifi)

(imzo)

Jizzax - 2013

A.Qodiriy nomidagi JDPI Tarix fakul'teti IV-kurs bitiruvchisi
Qo'shmurodov Bunyodning "Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik
taraqqiyot" mavzusi bo'yicha yozgan bitiruv malakaviy ishiga

T AQRIZ

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlarda rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat bo'zilayotganligi, tabiatga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Talaba Qo'shmurodov Bunyodning "Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunda o'rganilishi kerak bo'lgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanib, ushbu BMI kirish, 2 bob, 6 band, xulosa qismi va foydalanilgan adabiyotlar ro'xatidan iborat bo'lgan mukammal reja asosida yoritib berilgan bo'lib, BMIning birinchi bobi "Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobning bandlarida jahon va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot, mustaqillik yillarida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar va O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan hamkorligi haqida ma'lumot berilgan.

BMIning ikkinchi bobi "O'quvchilarda ekologik mas'uliyat va madaniyatni shakllantirish usullari" deb nomlangan va uning bandlarida ta'lim tizimida ekologik tarbiyani rivojlantirish istiqbollari, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning tarixiy ildizlari va tarix darslarida o'quvchilarda ekologik mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Tarix darslarida mavzularga uzviy bog'langan ekologik muammolarni tushuntirish orqali o'quvchilarda ekologik mas'uliyatni madaniyatni oshirishga yanada mukammallashtirishda yordam berishi tabiiydir.

Ma'rifatparvar A.Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir".

Ona tabiatning mahsuli hisoblanmish har bir kishi atrof-muhit muhofazasi bilan shug'ullanishi, Yer kurrasida yashovchi jonivorlar taqdiri ularning hayoti ustida qayg'urishni o'zlarining muqaddas burchi deb hisoblashlari kerak.

Ona tabiatga nisbatan mehr-hurmatni uyg'otish uni e'zozlash ko'p jihatidan ota-onalar, murabbiylar o'qituvchilarning bergan tarbiyasi, shuningdek tushuntirish ishlariga ham bog'liqdir.

Shunday ekan, yoshlarda ona tabiatni asrab-avaylash, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Bitiruv - malakaviy ishining xulosa qismida ishga ilmiy hulosalar berilgan. Bitiruv malakaviy ishni yoritishda ko'pgina adabiyotlardan foydalangan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini ishning oxirida ro'yxatini bergan.

Bitiruv malakaviy ish ayrim kamchiliklardan xoli emas. Jumladan, ishda imlo xatoliklari mavjud, ayrim jumalarda g'alizliklar bor. Ushbu xatoliklarni tuzatsa bo'ladi. Shuning uchun ishni yuqori saviyada deb baholayman.



**A.Qodiriy nomidagi JDPI Tarix fakul'teti IV-kurs bitiruvchisi Qo'shmurodov
Bunyodning "Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot" mavzusi
bo'yicha yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

T AQRIZ

Tabiat muhofazasiga, ekologik taraqqiyot masalalariga oid tarbiya g'oyalari o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu AH ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimiz asarlarida ilgari surilgan bo'lib, ularda tabiat va jamiyat birligi, o'zaro aloqadorligi, tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini asrab-avaylash, saqlash va ko'paytirish, tashqi muhitning tirik organizmlarga ta'siri kabi masalalar ilmiy asoslab berilgan.

Qo'shmurodov Bunyodning "Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunda o'rganilishi kerak bo'lgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanib, ushbu BMI kirish, 2 bob, 6 band, xulosa qismi va foydalanilgan adabiyotlar ro'xatidan iborat bo'lgan mukammal reja asosida yoritib berilgan bo'lib, BMIning birinchi bobi "Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobning bandlarida jahon va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot, mustaqillik yillarida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar va O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan hamkorligi haqida ma'lumot berilgan.

BMIning maqsadi yoshlarda istiqlol yillarida ekologik taraqqiyot bosqichlari va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar berish, yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishning usul va vositalarini ko'rsatib berishdan iborat bo'lib ishning ikkinchi bobi "O'quvchilarda ekologik mas'uliyat va madaniyatni shakllantirish usullari" deb nomlangan va uning bandlarida ta'lim

tizimida ekologik tarbiyani rivojlantirish istiqbollari , yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning tarixiy ildizlari va tarix darslarida o'quvchilarda ekologik mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'mi bor. Yurtimiz boy ma'naviy me'rosi bilan nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda turli ma'naviy va siyosiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

O'zbekiston zaminida juda o'lkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom ashyo manbalari to'plangan. Hozirgacha Respublikada mineral xom ashyoning 95 turi borligi aniqlangan bo'lib, ularga tegishli 700 ta kon mavjuddir.

Bu to'g'rida qanchalik so'z yuritsak shunchalik kamdir, lekin bu boyliklardan oqilona foydalanishni, ekologik muhitga ziyon yetkizmaslikni talab qiladi.

Bitiruv malakaviy ishda ayrim kamchiliklar ya'ni, imlo xatolar uchraydi. Lekin bu kamchiliklar ishning mazmun-mohiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

I Bitiruvchi Qo'sfmurodov Bunyodning "Milliy istiqlol va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ilmiy asosda, hozirgi talablarga javob bera oladigan ish hisoblanadi. Shu sababli men ushbu malakaviy bitiruv ishini ijobiy baholayman.

Taqrizchi:  Sultonov T

MUNDARIJA

Kirish.....	2-9
--------------------	------------

I-BOB. MILLIY ISTIQLOL VA O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TARAQQIYOT. MUSTAQILLIK YILLARIDA MAMLAKATIMIZDA ATROF- MUHITNI MUHOFAZA QILISH YUZASIDAN OLIB BORILAYOTGAN TADBIRLAR

1.1. Jahon va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot	10-14
1.2. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar.....	15-18
1.3. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan hamkorligi.....	19-22

II-BOB. O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MAS'ULIYAT VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

2.1. Ta'lim tizimida ekologik tarbiyani rivojlantirish istiqbollari.....	23-29
2.2. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning tarixiy ildizlari.....	30-44
2.3. Tarix darslarida o'quvchilarda ekologik mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish usullari.....	45-53

Xulosa.....	54-55
--------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar.....	56
---------------------------------------	-----------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish jarayoni ketmoqda. Ushbu jarayon samarasi ko'p jihatdan madaniy saviyasi baland barkamol inson shaxsini shakllantirishga bog'liq. Zotan, ana shunday shaxsgina ijtimoiy taraqqiyot mo'ljallarini va millat manfaatlarini chuqur anglab yetadi, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qiladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.Karimov ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi "Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat", - degan edi¹. Barkamol inson shaxsi ma'naviy qiyofasida ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablarining asosiy maqsadi - yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Binobarin, yosh avlodni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruxida tarbiyalash respublikamizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim- tarbiya tizimini isloh qilishning xal qiluvchi omili hisoblanadi².

"Millatni millat qiladigan yoshlar. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart"- deb ta'kidlagan edi Prezident I.A.Karimov³. Zero, ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalaridan biri jahon tarixi va madaniyati ilg'or yutuqlarini to'liq egallagan yangi avlodni tarbiyalashdan iborat.

Prezident I.A.Karimov qayd etganidek: "XXI asr bo'sag'asida, fan- texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jug'rofiy-siyosiy tuzilishi o'zgarmoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Shark, 1997, 341-bet.

² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.T., "O'zbekiston" 2000 yil 62-b.

³ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998, 163-bet.

muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda"¹.

Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlari qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari inson ongidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlarda rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat bo'zilatib ketayotganligi, tabiatga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Hozirgi kunda shaxslararo munosabatlardan tortib jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi orasidagi ko'plab muammolar odamlarning tabiatga munosabati, ular ongida ekologik madaniyatning talab darajasida emasligini namoyon etmoqda.

Tarix darslarida mavzularga uzviy bog'langan ekologik muammolarni tushuntirish orqali o'quvchilarda ekologik ma'suliyatni madaniyatni oshirishga yanada mukammallashtirishda yordam berishi tabiiydir.

Ma'rifatparvar A.Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir".

¹ Karimov I.A. Milliy istiqloq mafko'rasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O'zbekiston, 2000, 114-bet.

Ona tabiatning mahsuli hisoblanmish har bir kishi atrof-muhit muhofazasi bilan shug'ullanishi, Yer kurrasida yashovchi jonivorlar taqdiri ularning hayoti ustida qayg'urishni o'zlarining muqaddas burchi deb hisoblashlari kerak.

Ona tabiatga nisbatan mehr-hurmatni uyg'otish uni e'zozlash ko'p jihatidan ota-onalar, murabbiylar o'qituvchilarning bergan tarbiyasi, shuningdek tushuntirish ishlariga ham bog'liqdir.

Shunday ekan, yoshlarda ona tabiatni asrab-avaylash, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Atrof muhitga ongli munosabat natijasida ekologik madaniyat shakllanadi. Bu esa o'z navbatida, tabiatga yetkaziladigan zararning oldini olish va bartaraf etishda munosib ishtirok etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik savodxonlikni tarkib toptirishdan iborat. U quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

- insoniyat tabiatning bir bo'lagi ekanligini xis etish;

- tabiatni insoniyatning tug'ilish, yashash, rivojlanish makoni sifatida anglash va fikrlash;

- tabiat bilan jamiyatning uyg'unligiga doir tabiiy va antropogen bilimlar tizimiga ega bo'lish;

- tabiiy muhit bilan ongli munosabatga kirisha olish, uning xolatlarini baholay bilish bilim va malakaga ega bo'lish;

- atrof-muhitni tabiiy xolda kelajak avlod uchun saqlash kabilar. Prezident I.A.Karimov aytganidek: "Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi"¹. Ayniqsa, oliy o'quv yurti yoshlarlarining - kelajakda turli sohalarida faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislarning ekologik madaniyatini shakllantirish g'oyat dolzarb masaladir.

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005, 44-bet.

Mustaqil Respublikamizning yorqin istiqboli yo'lida oldimizda turgan muammo va vazifalarni amalgam oshirishda yosh avlodni jalb qilish ularni har tomonlama yetuk, ma'naviy, barkamol inson bo'lib yetishlarida ekologik ta'limda, ekologik madaniyatni shakllantirish kundalik hayotimizning asosiy vazifamizga kiradi. Bu o'ringa inson tabiatni, jamiyatni qolaversa o'zini samarali muhofaza qilishlarida ekologik ta'lim tarbiyaning o'rni va roli asosiy o'rinda turadi. Demak, ona –tabiatni asrab-avaylash har birizning muqaddas burchimizdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tabiat muhofazasiga, ekologik taraqqiyot masalalariga oid tarbiya g'oyalari o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimiz asarlarida ilgari surilgan bo'lib, ularda tabiat va jamiyat birligi, o'zaro aloqadorligi, tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini asrab- avaylash, saqlash va ko'paytirish, tashqi muhitning tirik organizmlarga ta'siri kabi masalalar ilmiy asoslab berilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, so'nggi yillarda tabiat muhofazasi, ekologik ta'lim va tarbiyaga oid muammolarni hal etish bo'yicha ko'pgina tadqiqot ishlari bajarilgan: chunonchi, rus olimlaridan, ekologik ta'limning nazariy asoslari akademik I.D.Zverev (Экологичность и образование // Советская педагогика. №1. 1971), ekologik ta'limning pedagogik asoslari professor A.N.Zaxlebniy (Книга для чтения по охране природы: Для 9-10 клас. ср. шк. - М.: Просвещение, 1986), oliy o'quv yurti yoshlarlariga ekologik ta'lim berish professor I.Ponomarevalar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, tabiiy o'quv fanlarini o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim berishning mazmuni, uni o'rganishning shakl va metodlari hamda uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi, ekologiyadan Davlat ta'lim standarti (DTS), I-XI sinf o'quvchilari bilishlari zarur bo'lgan ekologik bilimlar mazmunini ishlab chiqishdek muhim pedagogik muammolar E.O.Turdiqulov (Tomchi suvda hayot jilvasi. - T.: Ma'naviyat. 2001.) tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Ekologik taraqqiyot, ekologik ta'limning ijtimoiy, tabiiy-falsafiy jihatlar

bilan Yu.Sh.Shodimetov (Sog'lom turmush tarzi: ijtimoiy-gigiyenik va ekologik muammolar. - T.: Ibn Sino, 1991), B.Ziyomammedov (Ekologiya va ma'naviyat. - T.: Mehnat, 1997), S.Mamashokirov (Ekologik ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari.T.: 1993.), ekologiya va atrof- muhit muhofazasining ba'zi ilmiy masalalari bilan Sh.T.Otaboyev (Inson va biosfera. - T.: O'qituvchi, 1995), A.S.To'xtayev (Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. - Toshkent: O'qituvchi, 1994), Yu.Ye.Maxmudov (Ekologiyadan qo'llanma. - T.: Fan, 1997) va boshqalar shug'ullanishgan.

Qator tadqiqotchilar o'quv fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga ekologik ta'lim va tarbiya berishga oid pedagogik muammolarni, uning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli va metodlarini tadqiq etganlar. Sh.Avazov (Maktabda ekologik tarbiya. - T.: O'qituvchi, 1992), N.U.Nishonova (Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish), I.Ismatov (O'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. Ped.fan.nomz.diss. avtoref. - T.: 2006.), V.N.Sattorov (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-IX sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish Ped.fan.nom.diss.avtoref. - T.: 2001), dars mashg'ulotlarda estetik-ekologik ta'lim muammolarining turli jihatlarini, shuningdek, N.M.Egamberdiyeva (Atrof-muhit ta'sirida yoshlarni axloqiy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari (pedagogika kollejlari misolida). Ped. fan. nomz.diss. avtoref. - T.: 2004.) atrof-muhit ta'sirida yoshlarni axloqiy tarbiyalash, ularning ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari mavzularida tadqiqot ishlari olib borganlar.

Ammo, yoshlarga uzviy va uzluksiz ekologik ta'lim berish asosida, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi hali ilmiy-metodik jixatdan to'liq xal etilmagan.

Yoshlar bilishlari zarur bo'lgan ekologik bilimlar mazmunini aniqlab, o'qitish metodikasini ishlab chiqish ta'lim tizimi uchun muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi. Shu jihatdan yoshlarga tizimli ekologik ta'lim berish orqali ularning ekologik madaniyatini shakllantirishni tadqiq etish zaruriyati tugilldi. Ana shu

zaruriyat bizni **“Milliy istiqlol va O‘zbekistonda ekologik taraqqiyot”** mavzusini tanlashga yo‘lladi.

BMIning maqsadi: yoshlarda istiqlol yillarida ekologik taraqqiyot bosqichlari va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumotlar berish, yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishning usul va vositalarini ko‘rsatib berishdan iborat.

BMIning vazifalari:

- yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalardan ekanligini ilmiy-nazariy jixatdan asoslash;

- yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirishda ta’lim-tarbiya tarixi tajribalarini taxlil qilish;

- yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishga yo’naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat.

BMIning obyektini: milliy istiqlol va O‘zbekistonda ekologik taraqqiyot mavzusini yoritish, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonlari tashkil etadi.

BMIning predmeti: Jahon va O‘zbekistonda ekologik taraqqiyot, mustaqillik yillarida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar, O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan hamkorligi, ta’lim tizimida ekologik tarbiyani rivojlantirish istiqbollari, tarix darslarida o‘quvchilarda ekologik mas’uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish usullari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi:

- yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish masalalari uzluksiz ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida karalsa;

- ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni uyg‘unlashtiruvchi tizim sifatida yondashilsa;

- yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishning zamonaviy metod va vositalaridan samarali foydalanilsa;

-ekologik madaniyatni shakllantirish tarixiy, milliy, ekologik qadriyatlar hamda hozirgi zamon mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolar bilan uzviy va uzluksiz aloqada amalga oshirilsa, yoshlarning ekologik madaniyati darajasi samarali buladi va tabiatga nisbatan ijobiy munosabatlari rivojlanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ekologiyaga oid asarlari, O'zbekiston hukumatining ekologiyaga doir qaror va me'yoriy xujjatlari, Sharq mutafakkirlarining ekologik tarbiya haqidagi fikrlari, ekologik muammolarga bag'ishlangan umumbashariy g'oyalar, inson va tabiatning o'zaro aloqadorligi qonuniyatlarini bilishga oid falsafiy qarashlar, inson salomatligi va ma'naviyatining ekologik muammolarga bog'liqligi to'g'risidagi qoidalarga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: Ekologiyaga doir fanlarni o'qitish metodikasi kurslarida, maktab va akademik litsey o'quvchilarida, shuningdek kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurti yoshlarlarida ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim qo'llanma hisoblanadi. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari ko'rsatib berildi. Bitiruv malakaviy ishda ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oyalar, bo'lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini shakllantirishda yordam beradi. Ilmiy-metodik tavsiyalardan esa o'qituvchi pedagoglari yoshlarni ekologik bilim va madaniyatlarini boyitishlarida foydalanishlari mumkin, bu esa uz navbatida ta'lim samaradorligini oshirishga katta yordam beradi.

BMIning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat tarkibiy tuzilishga ega.

I-BOB. MILLIY ISTIQLOL VA O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TARAQQIYOT. MUSTAQILLIK YILLARIDA MAMLAKATIMIZDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH YUZASIDAN OLIB BORILAYOTGAN TADBIRLAR

1.1. Jahon va O'zbekistonda ekologik taraqqiyot

Vatanimiz tarixida Ozbekistonning yangi tarixiy bosqichini boshlab bergan buyuk voqea sodir bo'ldi. 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida O'zbek xalqining xohish irodasi bilan O'zbekistonning davlat mustaqilligini, ozod suveren davlat-O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi va davlat mustaqilligining asoslari qonun bilan mustaxkamlandi.

1-sentabr O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzusi umidlari ushaldi, muqaddas maqsadi ro'yobga chiqdi, siyosiy, iqtisodiy qaramlikdan qutildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo'lga kiritish tasodifiy holat bo'lmadi, balki jamiyat taraqqiyotining qonuniy maxsulidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda "Mustaqillik o'zbek davlati – xalqimizning tarixiy yutig'idir".

Har bir xalq mustaqil davlat tuzish, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi tabiatan aniqrog'i Olloh taolodan berilgan muqaddas inomdir.

Shuni aytish kerakki biz uchun - mustaqillik eng avvalo o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash milliy qadriyatlarni, urf -odatlarimizni tiklash, aziz vatanimizda adolat, insof, dini-diyonat, mehru-oqibatni qaror toptirishdir.

O'zbekiston o'z istiqlool yo'lida izchil qadam bosar ekan o'z ona tabiatini asrab-avaylash yuzasidan bir qator dunyoning yirik mamlakatlari bilan har tomonlama aloqalarni o'rnatmoqda. Lekin shuni ham aytish kerakki ayni vaqtda dunyo ekologik jarayoni tubdan o'zgarib bormoqda. Biz yashab turgan hozirgi dunyoning atmosferasini toza ekologik talablarga javob beradi deya olamiz-mi?-yoq albatta deyishimiz mumkin. Yurtboshimiz I.Karimov ta'kidlananidek "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolardan biri. Bu muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib

svilizatsiyaning bugungi kuni va kelajagi ko'p jihatidan shu muammoni hal etishga bog'liq".

Ekologiya muammosi yer yuzining burchaklarida ham dolzarb, faqat uning keskinligi dunyoning turli mamlakatlarida turlichadir.

Shu o'rinda bir dunyomamlakatlaridagi ekologik jarayonlarga ko'z tashlasak: Dunyo miqyosida tabiyatga chiqariladigan chiqindilar 1970 yilda 40 mlrd tonna bo'lgan bo'lsa XX asr oxiriga borib 100 mlrd tonnaga yetishi mumkin ekan.

Buyuk Britaniya va Germaniyadan keladigan kislotali yomg'irlar ta'sirida Skandinaviyadagi 20 ming ko'lda hayot tugadi. G'arbiy Yevropaning ko'p mamlakatlarida o'rmonlar qurib qolmoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligi, ba'zi bir rivojlangan davlatlar ekologik siyosatni tabiatdan foydalanish siyosatini yorita boshladilar.

Darhaqiqat, hozirgi muhofaza qilish davlatlarning o'z ichki siyosatiga ham bog'liq bo'lib, tabiat muhofazasini dolzarb kechiktirib bo'lmaydigan muammolardan bo'lib qoldi. Ekologik fojialardan biri shimoliy va janubiy Amerikadagi katta-katta o'rmonlarning yoqolib ketgani, yer osti va yer usti boyliklarini muttasil qazib olish oqibatida tog'lar ornida chuqirliklar suniy tog'lar paydo bo'ldi. shuningdek fors ko'rfazi majorasi ming tonnalab neft dengizga oqib tushdi, yong'inlar natijasida esa Iroq, Eron, Suriya, Arabiston va Turkiyada juda ko'p qurum to'kildi, qora yomg'irlar yog'di.

Urush vaqtida emas balki tinch davrda sodir bo'lgan Chernobil AES falokati (20.04.1987 y) bir qancha mamlakatlarga ta'sirini ko'rsatdi.

Chernobil AESi falokati vaqtida Ural tomondan esgan antisiklon radioaktiv moddalarni surib ketib, Skandinaviya, Finlandiya, Shvetsiya, Parij va Yaponiyada radioaktiv moddalarning darajasi oshganligi qayt etildi. Hozirgi davrda esa inson va biosferani zararlanishi darajasining kuchayishida avtotransport vositalaridan chiqadigan zaharli gazlar muhim o'rinni egallamoqda. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki AQSh va Yaponiya avtotransportvositalari atmosferani ifloslantirishda oldingi o'rinda turadi.

Xorijiy mamlakatlar atmosferasi qobig'ini ifloslantiruvchi gazlar ichida is gazi uglovodorodlar, shuningdek azot oksidlari barcha gazlarning 60-70 % ni tashkil qiladi.

Grenlandiya muzliklarida bo'lgan qo'rg'oshin miqdori hozir VIII asrdagiga nisbatan 400 marta ortib ketganligi aniqlangan. Transport vositalarni atmosferani zaharlayotgan yana shunday shaharlardan Tokio, Ottava shahrida atmosferaning ifloslanishi 40 % ga yaqindir. Shuningdek MDH da avtotransport vositalari 1988 yilning o'zida 35,8 mln tonna zararli omillarni havoga chiqarib tashlangan. AQSh 1950 yil atmosferaga 70 mln tonna, 1975 yil 120 mln tonna, 1980 yili 181 mln tonna zararli omillar chiqarib tashlagan bo'lsa, 2000 yilda 280 ming tonna zararli moddalar atmosferani ifloslantirgan..

Shuni ham ta'kidlash joizki jahondagi ekologik jarayonlar yosh, mustaqil O'zbekistonning ekologik tabiatiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy.

O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rni bor. Yurtimiz boy ma'naviy me'rosi bilan nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda turli ma'naviy va siyosiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

O'zbekiston zaminida juda o'lkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom ashyo manbalari to'plangan. Hozirgacha Respublikada mineral xom ashyoning 95 turi borligi aniqlangan bo'lib, ularga tegishli 700 ta kon mavjuddir.

Bu to'g'rida qanchalik so'z yuritsak shunchalik kamdir, lekin bu boyliklardan oqilona foydalanishni, ekologik muhitga ziyon yetkizmaslikni talab qiladi.

Bizga ma'lumki, mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50,54.55 va 100-moddalarida ekologiyaga doir talablar aks etgan.

Shuningdek: 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv , o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umumiy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deb ta'kidlagan.

Shunday ekan O'zbekistonning har bir fuqorasi tabiatdan qonuniy oqilona foydalanishga majburdir. Bizga ma'lumki mamlakatimizdagi ekologik sharoit ancha murakkabligicha qolmoqda: Masalan, Toshkent shahri va uning atrofi eng

murakkab ekologik guruhga kiradi. Jumladan Yakkasaroy tumanida atmosferaga chiqarib tashlangan 50 yillik zararli moddalar 450 ming tonna, tozalanmayotgan oqova suvlar 2.5 mln kub litrni tashkil yetadi.

Shu kabi aholi zich joylashgan Samarqand va Farg'ona viloyatlarida kimyoviy zavodlarning joylashishi noo'rin deb hisoblash mumkin. Jumladan, Samarqand kimyo zavodi yonida kimyogar shaharchasi barpo etilgan bo'lib shahar hududida yil davomida vaqti-vaqti bilan kimyo zavodi tutunlari paydo bo'lib turadi.

Inson tabiat boyliklaridan, uning ehsonlaridan oqilona, rejali foydalanmas ekan, u o'z marhamatini ko'rsatavermaydi. Tabiatga ta'sir etishda ba'zan jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi tabiiy. Buni Orol fojiasida ko'rsa bo'ladi. Sayyoramizning eng katta ekologik halokati bo'lmish Orol muammosi juda keskin tus oldi. Keng mintaqada sanitariya epidemiologiya ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyat kun sayin yomonlashib bormoqda. Hayoti bevosita Orol bilan to'qnash bo'lgan Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qizilo'rda va Toshhovuz viloyatlarida turmushning barcha sohalarida jonsarak vaziyat vujudga kelgan. Odamlarning yashash sharoiti va sihat-salomatligi keskin yomonlashmoqda!

Agar 1960 yilgacha Orol dengiziga yiliga $50-60\text{km}^3$ suv quyilgan bo'lsa, 70-80 yillarda unga atigi 5 km^3 ni yashkil etadigan suv borgan. Endilikda katta va kichik qismlarga ajralib suvning sho'rliigi 50 g/l ga yetdi. Orol qurishi bilan bog'liq bo'lgan barcha zararlar har yiliga 250 mln Amerika dollariga barobar keladi! Orol sathining pasayishiga sabab shuki:

1. Amudaryoning bir qismini Qoraqum (Turkmaniston) kanaliga oqizish tufayli

2. Sirdaryoda barpo qilingan Chordara suv ombori bo'ldi, natijada Amudaryo havzasida katta-kichik ko'llar hosil bo'la boshladi. Sirdaryo havzasida qadimiy Tuskon, Aydarko'l va Arnasoy o'rnida dengizlar jamlanmasi yuzaga keldi. Hozirgi paytda Sirdaryo va Jizzax cho'llarida yerlarning sho'rliigi oshib meliorativ holati izdan chiqib qolgan.

Shuni aytish kerakki, nobud bo'layotgan tabiat durdonalari, ayniqsa inson hayotini hech qanday pul bilan o'lchab bo'lmaydi.

O'zbekistonning boshqa viloyatlarida ahvol tang holatda qolmoqda .Masalan: Respublikamizda yerlarning sho'rliigi Markaziy Osiyo sharoitida tuproqni baholaganda uning sugo'rliigi birinchi o'rinda turadi.

Eng ko'p shorxok tuproqlar Qoraqalpoqistonda bo'lib 55% ni tashkil etadi. Shuningdek Respublikamizning tabiiy iqlim sharoitiga kora barcha turdagi yemirilishlar sodir bo'ladi, 27 mln gektar qishloq xo'jalik uchun ajratilgan yerdan 25 mln gektari har hil turdagi yemirilishga uchragan. Har yili 2,8 mln gektar ekinzor suv toshqin oqibatida yuvilib ketadi.

Mutaxassislarning fikricha O'zbekistonga 2000 yil suv tanqisligi qishloq ho'jaligiga 300 mln dollardan ziyod zararlar yetkazgan. Tog'lardagi suv boyliklari hisoblanmish muzliklarning iqlim o'zgarishi sababli sezilarli darajada kamaygan.

Bunga Orol va Orol bo'yidagi sho'rxok maydonlardan har yili osmonga ko'tarilayotgan 160 mln tonna tuz kukunlarining (bir qismi) mintaqadagi tog'larga "qo'nishi" olmlar tomonidan Orol sho'ri hatto humolay tog'idagi muzliklarni ham eritayotgani to'g'risida suniy yo'ldoshlar orqali yetarli ma'lumot olingan, mutaxassislarning xabariga qaraganda O'rta Osiyoda tog'larida suv zaxiralari 1750 km³ qolgan.Vaholanki bundan 2 asr oldin bu miqdor 2000 km³ oshardi. "O'zbekiston Respublikasi Mahkamasining 17-yanvar 2001-yildagi O'zbekiston Respublikasining qishloq va suv vazirligi qarori" shu sohani takomillashtirish va muammoni yechish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Haqiqatdan ham ekologik jarayonlarning oldini olish uchun hamma, har bir shaxs o'z hissasini qo'shishi va birgalikda olib bormog'i lozim. Bu mavzuni o'quvchilarga tushuntirib berishda quyidagi jadval asosida tushuntirishimiz mumkin.

1.2. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda atrof - muhitni muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar

Bizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI-XII boblarida berilganidek ya'ni 50-54-55 va 100-chi moddalarida ekologiyaga oid talablar aks etgan Ushbu konstitutsiyaviy asoslarini hayotga tatbiq etish maqsadida qator qonunlar qabul qilindi¹.

“Yer kodekisi” da “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “Davlat sanitariya nazorati to'g'risida”gi, “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida”gi “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi”, “O'simliklar dunyosini muhofaza qilish to'g'risida”gi qator keng jamoatchilikka tushuntirish hozirgi kunning dolzarb muammosidir.

XX asrga kelib O'zbekiston ekologik muammolarni oldini olish va yaxshilash bo'yicha quyidagi taklif va strategik yo'nalishlarni ishlab chiqdi.

“O'zbekiston Respublikasi 1999-2005 yillarga mo'ljallangan atrof-muhitni muhofaza qilish harakat davlat dasturi”, O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi”, “O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigenasi bo'yicha milliy harakat dasturi”, “Biologik xilma-xillikni saqlashning milliy strategiyasi va harakat rejasi” kabi hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu hujjatlarda davlat tizimining jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat shakli, hozirgi kunda va kelajakda qanday bo'lishi O'zbekistonning ekologik konsensiyasi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosatining asosiy maqsadi shundaki kishilarning hayotiy zarur bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish yani tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy ekologik munosabatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

29 avgust 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risidagi” qonunlarda mamlakatimizning ekologik konsepsiyasi berilgan bo'lib unda quyidagilarda e'tibor berilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O'zbekiston”. 2012 yil.

Shaxsning-hayotiy zaruriy ehtiyoji bo'lgan kishilarni so'lig'ini muhofaza qilish va insonlarning turmushi uchun optimal harakatlardagi ekologik sharoitlarni yaratib berish. Respublikamiz ekologik siyosatining asosiy maqsadini amalga oshirish uchun organik rivojlanish bilan bir qatorda muhofaza qilish va rivojlantirish konsepsiysini ta'minlashtirish zarur.

Xuddi shu yo'nalishda maktab va muzeylarda shaxsning ekologik ma'naviyatini shakillantiruvchi eklogiya darslari o'ziga xos ahamiyatga ega.

Respublikamizda o'smirlar ekologik markazi "Ekologik ta'lim" laborato'riyasi tashkil qilingan. Respublikada ekologik ta'lim tarbiya muammolariga bag'ishlangan milliy metodik anjumanlari o'tkazilmoqda. 1-2-3-4 sinflar o'quv rejasida tabiatshunoslik darslari kiritiladi.

"Ekologiya, tabiat va inson o'simliklar dunyosi va biologiya" mavzusida test ishlab chiqildi. Respublikamizda ekologiya masalalari bo'yicha bir qator ishlar ayni vaqtda o'z natijalarini ko'rsatib kelmoqda.

Respublikamizda ekologiya masalalari bo'yicha bir qator qanun-qoidalarni qabul qiladi.

Jumladan, 1996 yil 27 dekabrda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi kodeksning 7 chi bobida ham keltirilgan.

Shu kabi Toshkent shahri o'rta va oily o'quv yurtlarida madaniy ekologik ta'lim va tarbiya jaroyoniga metodologik hamda metodik yordam ko'rsatuvchi-"Ekoplis" o'z xizmatini ko'rsatmoqda.

Shuningdek respublikamizda aholiga ekologik tarbiya berish uchun Respublika tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi "Inson va biosfera va Yenesko ga qarashli "O'zbekiston milliy dasturi", "EKOSAN xalqaro ekologik va salomatlik fondi o'z ishini har tomonlama muhitdan kelib chiqqan holda muntazam olib bormoqda".

Ekologik tadbirlarning natijasi Respublikamizning ko'pgina viloyatlarida ayniqsa avtomobil serqatnov yollarda atmosferani himoyalash uchun terakzorlar barpo etilib, maktablarda esa ekologik muammolar yuzasidan tadbirlar uyushtirilmoqda.

1998 yil Toshkentda “Atrof-muhit mintaqaviy muammolarni va ularni hamkorlikda hal qilish yo’llari” mavzusida xalqaro seminar bo’lib o’tdi. Bu seminarda Markaziy Osiya davlatlari oldida ko’ngdalang bo’lib turgan atrof-muhit bilan bo’g’liq muammolarni hal qilish ayni chog’da mintqa iqtisodi balki demokratik insitutlarning taraqqiyotiga ham to’siq bo’layotganligi ta’kidlandi.

1990 yil 12 yanvarda Ko’kcha lavda, 1997 yil 9-10 yanvarda Bishkekda, 1997 yili 12 dekabrda Qozoqistonda davlat rahbarlarining uchrashuvi bo’lib o’tgan edi

1998 yili 5-6 yanvar kunlari Ashhabadda, Turkmaniston, O’zbekiston, Qozoqiston, Qirg’iziston va Tojikiston Prezidentlariining uchrashuvi bo’lib o’tdi. Uchrashuv chog’da Markaziy Osiyo mamlakatlar o’rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi va istiqboldagi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotning muhim yo’nalishlari bo’yicha hamkorliklarni kengaytirish va chuqurlashtirish masalalari ko’rildi

Shuningdek uchrashuvda uzatish, neft va gaz uzatish, transport va kommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirish, shu orqali jahon bozoriga chiqishni yaxshiroq ta’minlash zarurligi masalalariga to’xtaldi

Markaziy Osiyo davlatlari qachon, qaerda uchrashgan bo’lsa ham, har bir uchrashuvda mamlakatlarning bir-biri bilan har tomonlama aloqalarni o’rnatish tinch totuv yashashga shuningdek ekologik masalalarni hal qilishga qaratgan.

O’zbekiston o’z mustaqilligiga erishgach dunyoning eng nufizli xalqoro tashkilotlarni bilan har tomonlama aloqalarni yo’lga qo’ydi. Bu aloqalardan eng asosiy o’zinni egallagan ekalogik muommolar yuzasidan tuzilgan shartnoma va turli xil kelishuvlar misol bo’la oladi.

Ekologiya muommolarning oldini olish maqsadida Respublikamida ayni damda tashqi muhitni nazorat etuvchi umum davlat sistemasi ishlamoqda.

U 450 shahar va sanoot markazlarini, quruqlikdagi hamma suv ob’eklarini, daryo, tuproq qatlamini qamrab oladi.

Ayni vaqtda dunyo ekalogik qiyofasini BMTning YeNEP, YeNESKOVOZ, MOP degan tashkilotlarni davlotlarning ekalogik borasidagi faoliyatini kuzatadilar.

Respublikamizda 2000 yil 22-24 mart kunlari Toshkentda iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) ning maxsus ishchi guruhi tomonidan uyishtirilgan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy manbalarda foydalanishning iqtisodiy vositalari bo'yicha 11 seminar va atrof muhitni muhofaza qilishni mablag' bilan taminlash yangi mustaqil davlatlar tarmog' bo'yicha 4-uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Mazkur seminarda Markaziy va Sharqiy Evropa atrof muhitni muhofaza qilish harakat dasturini amalga oshirish doirasida o'tkazildi.

Ushbu seminarda yangi mustaqil davlatlarning rasmiy vakillari va ekspertlari shuningdek G'arbiy Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining ekspertlari yig'ilib ekologik muhit muammolari haqida kelishib oldilar.

2000- yil fevral oyida EKOSAN xalqaro jamg'omasida jamoat tashkilotlari vakillari, bir necha xorijiy davlatlarning elchilari xalqaro tashkilotlar vakolat xonalarining boshliqlari ishtirokida Toshkentda uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Aydarko'l Tuzkon ko'llaridagi suv ko'payishi oqibatidagi natijasidagi oqibatlar va Orol dengizini qo'shimcha suv bilan taminlash imkonini berishni ta'kidladilar.

Xuddi shu masalalar davomli bo'lib 2000-yil 16-17 oktyabr kunlari Olmatadagi yangi mustaqil davlatlarning tabiatni muhofaza qilish vazifalari va molia vazirlari ishtirokida o'tkazilgan kengashda ekologik muammolar haqida so'z yuritildi.

Atrof muhitni muhofaza qilishni harakat rejasini amalga oshirish bo'yicha maxsus ishchi guruhi tuzilgan va bu o'z ishini amalga oshirmoqda

Atrof muhitni muhofaza qilish harakat rejasini amalga oshirish bo'yicha maxsus ichki guruhining raisi Jon Fransua Verstreng iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (EZERT) atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar ekologik barqarorlikni rivojlantirish iqtisodiy jihatdan mablag' ajratish kerakligi mexanizmlarini ishlab chiqish haqida kelishib olindi .

1.3. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan hamkorligi

Ekologiyada solinayotgan xavf O'zbekiston Respublikasi uchun umuman Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof-muhitni himoya qilish tabiiy zahiralaridan oqilona foydalanish masalalariga juda katta e'tibor bermoqda.

Markaziy Osiyo sharoitida yer Alloh taoloning bebaho i'nomidir suv esa asosan Qirg'iziston va Tojikiston tog'laridan boshlanadi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda suv zahirolari juda cheklangan.

Yiliga 78 km³ suv keltiradigan Amudaryo va 36 km³ suv keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbalaridandir .

Suv zahiralaridan ko'pchilik qismida Markaziy Osiyodagi barcha Respublikalarning yerlarni sug'orish uchun foydalanadi.

Markaziy Osiyo davlatlarining manfatlari yo'lida hamda ekologiya talablarini daryo deltalarida Orol dengizda maqbul hayotiy shart-sharoitlarni yaratish maqsadlarini ta'minlash zarur.

Shu bilan birga Orol dengizi havzasining cheklangan suv havzalarini birgalashtirib kelishgan holda echilishi kerek.

Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy integrasiyasi uzoqqa mo'ljallangan bo'lib ishtikokchi mamlakatlar, xalqlar orasida do'stlik va hamkorlikni va iqtisodiy rivojlanishga be'bosita amaliy ta'sir ko'rsatadigan integrasiyadir.

Markaziy Osiyo davlatlari garchi ijtimoiy siyosiy etnik va madaniy jihatidan xilma-xil bo'lsada birgalikda nur sarflashi lozim.

Markaziy Osiyodagi 3 qardosh mamlakatlar O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari o'rtasidagi aloqalarga e'tibor beradigan bo'lsak iqtisodiy integrasiyani rivojlantirish ekologik muammolarni hal etish va birqator masalalarni birgalikda hal etib kelmoqda.

1990 yil 12 yanvarda Ko'kcha lavda, 1997 yil 9-10 yanvarda Bishkekda, 1997 yili 12 dekabrda Qozoqistonda davlat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tgan edi

1998 yili 5-6 yanvar kunlari Ashhabadda, Turkmaniston, O'zbekiston, Qozoqiston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv chog'da Markaziy Osiyo mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi va istiqboldagi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotning muhim yo'nalishlari bo'yicha hamkorliklarni kengaytirish va chuqurlashtirish masalalari ko'rildi

Shuningdek uchrashuvda uzatish, neft va gaz uzatish, transport va kommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirish, shu orqali jahon bozoriga chiqishni yaxshiroq ta'minlash zarurligi masalalariga to'xtaldi

Markaziy Osiyo davlatlari qachon, qaerda uchrashgan bo'lsa ham, har bir uchrashuvda mamlakatlarning bir-biri bilan har tomonlama aloqalarni o'rnatish tinch totuv yashashga shuningdek ekologik masalalarni hal qilishga qaratgan.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach dunyoning eng nufizli xalqoro tashkilotlarni bilan har tomonlama aloqalarni yo'lga qo'ydi. Bu aloqalardan eng asosiy o'zinni egallagan ekologik muommolar yuzasidan tuzilgan shartnoma va turli xil kelishuvlar misol bo'la oladi.

Ekologiya muommolarning oldini olish maqsadida Respublikamida ayni damda tashqi muhitni nazorat etuvchi umum davlat sistemasi ishlamoqda.

U 450 shahar va sanoot markazlarini, quruqlikdagi hamma suv ob'ektlarini, daryo, tuproq qatlamini qamrab oladi.

Ayni vaqtda dunyo ekologik qiyofasini BMTning YeNEP, YeNESKOVOZ, MOP degan tashkilotlarni davlatlarning ekologik borasidagi faoliyatini kuzatadilar.

Respublikamizda 2000 yil 22-24 mart kunlari Toshkentda iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) ning maxsus ishchi guruhi tomonidan uyishtirilgan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy manbalarda foydalanishning iqtisodiy vositalari bo'yicha 11 seminar va atrof muhitni muhofaza qilishni mablag' bilan taminlash yangi mustaqil davlatlar tarmog' bo'yicha 4-uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Mazko'r seminarda Markaziy va Sharqiy Evropa atrof muhitni muhofaza qilish harakat dasto'rini amalgam oshirish doirasida o'tkazildi.

Ushbo' seminarida yangi musyaqil davlatlarning rasmiy vakellari va ekspertlari shuningdek G'arbiy Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining ekspertlari yig'lib ekologik muhit muammolari haqida kelishib oldilar.

2000- yil fevral oyida (ekasan) xalqaro jamg'rmasida jamoat tashkilotlari vakillari, bir necha xorijiy davlatlarning elchilari xalqaro tashkilotlar vakolat xonalarining boshliqlari ishtirokida Toshkentda uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Aydarko'l Tuzkon ko'llaridagi suv ko'payishi oqibatidagi natijasidago oqibatlar va Orol dengizini qo'shimcha suv bilan taminlash imkonini berishni takidlaydilar.

Xuddi shu masalalar davomli bo'lib 2000-yil 16-17 okteabr kunlari Olmatadagi yangi mustaqil davlatlarning tabiatni muhofaza qilish vazifalari va molia vazirlari ishtirokida o'kazilgan kengashda ekologik muammolar haqida so'z yuritildi.

Atrof muhitni muhofaza qilishni harakat rejasini amalgam oshirish bo'yicha maxsus ishchi guruhi tuzilgan va bu o'z ishini g amalga oshirmoqda

Atrov muhitni muhofaza qilish harakat rejasini amalga oshirish bo'yicha mahsus ichki guruhining raisi Jon Fransua Verstreng iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (EZERT) atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar ekologik barqarorlikni rivojlantirish iqtisodiy jihatdan mablag' ajratish kerakligi mehanizmlarini ishlab chiqish haqida kelishib olindi .

Xuddi shunday anjumanlardan yana biri bizga ma'lumki 1992-yil Rio-de Jeneyrada bo'lib o'tgan Unda barqaror rivojlanish konsepsiyasi qabul qilinib XXI-asrda hozirgiga nisbatan barqaror taraqqiyotga erishish o'simlik va hayvonot olamini asrash isiqxona effektini beruvchi gazlarni kamaytirish va glaball rivojlanishda harakatning oshib borishi oldini olish muamolari ko'tarilgan edi.

Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalari atrof-muhit muhofazasi oid vazifalarning PROON, KOON xalqaro bank Yevropa ittifoqi TESIS, OESR xalqaro tashkilot vakillari bilan birgalikda atrof-muhitning holatini taxmini

va bahosini hamda kelajakda uni muhofaza qilish va yaxshilash chora-tadbirlariga asoslangan uchrashuvi bo'lib bu Markaziy Osiyo hududidagi ekalogik masalalarga qolaversa O'zbekistonning ekologik muhitiga o'z e'tiborlaringiz kuchayganidan dalolat beradi.

II-BOB. O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MAS'ULIYAT VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH USHULLARI

2.1. Ta'lim tizimida ekologik tarbiyani rivojlantirish istiqbollari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim haqida" qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" keng muhokama etilib, tasdiqlandi.

Bunday islohotlar pedagogika fani oldiga juda katta muammolarni qo'ydi. Bu muammolar eng avvalo milliy istiqlol sharoitida shaxs tarbiyasi yo'lini ortib borayotganligiga ko'rinadi. Bu o'rinda birdan mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlari ya'ni o'zbek halqining milliy ruhiyati va turmush tarzining hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoning ta'lim tarbiyaga salbiy yoki ijobiy ma'nodagi va uni hisobga olish juda muhim. 2-dan inson shaxsini shakllantirishda tarbiya ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim berish jarayonining barcha tamoyillarini o'z ichiga qamrab oladi.

Ayni vaqtda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichga o'tayotgan ekanmiz bu borada, fan, madaniyat va manaviyat taraqqiyotiga har jihatdan ijobiy ta'sir etish lozim bo'ladi.

O'quvchilarda ekologik ma'suliyat va madaniyatni shakllantirib borishda xuddi shu masalalarni yuqori darajada amalgam oshirishga bog'liqdir. O'quvchilarning ekologik tarbiyasi va tabiatan oqilona foydalana olish to'g'risidagi bilim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa tabiat qonunlarini yaxshi bilsa Ona shundagina tabiatdan foydalanish madaniyati va ma'suliyati ham shu qadar yuqori bo'ladi. Bunday ishlarni amalga oshirish va bunga erishishda ko'proq pedagog o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Biz pedagoglar o'quvchilar ongida tabiat, tabiat mavjudodlari, inson va tabiat bog'liqlari, qolaversa ekologiya va uning maqsad vazifalari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Ekologik tabiatning maqsadi inson va tabiat, inson va atrof muhit o'zaro uyg'unligida ekologiyani anglatish va o'quvchilarda ekologik ma'suliyat va

ma'naviyatni shakllantirish demakdir. Bu tabiatga ilmiy asoslangan ta'sir orqali namayon bo'ladi.

Buni amalga oshirish esa o'qituvchilar oldiga qo'yilgan katta masala bo'lib maktab va xalq ta'limining barcha tizimi, yosh avlodni tarbiyalash an'anasiga bizdan, tabiat inomidan to'liq foydalanish kerak "Biz tabiatdan hayr-ehson kutib o'tirmaymiz, uni o'zimizga bo'ysindirmaymiz" degan g'oyalardan voz kechishni, tabiatni himoya qilish va tabiatni inomlaridan avaylab unga ziyon yetkazmasdan foydalanishni taqozo etadi. Shunday ekan maktab sharoitida ekologik ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalarini amalga oshirishda mustaqil O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi talablarga amal qilinadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ishlab chiqarish texnologiyasining nomukammalligi, tabiatga nisbatan iste'molchilik an'analari - bularning barchasi jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqasidagi ziddiyatlar keskinlashuvining bosh sababidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarining Xavfsizlikka taxdid bulimida Ekologik muammolar to'g'risida aloxida to'xtalib utgan¹. I.Karimov ekologik muammolarning tobora chuqurlashib, keskin ijtimoiy muammoga aylanayotganligi haqida suz yuritar ekan, ekologik muammolarga karshi ta'sirchan chora-tadbirlarni ruyobga chiqarish, ekologik tanglik taxdidini barham toptirish respublika aholisi uchun, jismonan sog'lom yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda ekologik jixatdan musaffo hayotiy muxit yaratish imkonini beradi, deb bayon qiladi. Jumladan, "Ekologik xavfsizlik muammosi allakachonlar milliy va mintakaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng mikyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni xalq etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizasiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jixatdan ana shu

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafko'rasi - xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: O'zbekiston, 2000.110-134 bb.

muammoning xal qilinishiga bog'liqdir" deb aloxida ta'kidlaydi.

Jamiyatning tabiatga ta'sir o'tkazish kuchi shu darajaga borib yetdiki, natijada ular o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikka putur yetib, tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zaxiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'prok foydalanilmoqda. Buning ustiga dunyo aholisi yildan-yilga usib borib, ko'prok mikdorda ozik-ovkat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda¹.

Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlari insonlar uchun juda katta qulayliklar, imkoniyatlar yaratishi bilan birga tabiatga nisbatan nixoyatda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

I.A.Karimov ekologik muammolarning asl mohiyati haqida fikr yuritarkan, birinchi muammo - yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavfning to'xtovsiz ortib borayotganini ta'kidlaydi. Ikkinchi muammo sifatida suv zaxiralarining, ya'ni yer usti va yer osti suvlarining keskin takchilligi hamda ifloslanganligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib utadi. Uchinchidan, Orol dengizi fojiasi bilan bog'liq muammolarga e'tiborni karatadi va buni xalqaro miqyosda xalq etish yo'llarini tushuntirib beradi. To'rtinchidan, havo bo'shlig'ining ifloslanishi hamda Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan taxdidlarga to'xtalib, mazkur ekologik muammolarni xalq etish yo'nalishlari, ya'ni ekologik xavfsizlikni kuchaytirish yo'llarini belgilab beradiki, bularning barchasi ekologik muammolarni bartaraf etishning konseptual asoslari bo'lib hisoblanadi.

Tabiat boyliklari bo'lmish - yer, suv, havo nixoyatda ifloslangan, o'simlik va xayvonot olami ayrim turlarining mavjudligi xavf ostida qolgan. Shu sababli, atrof muxitni muxofaza qilish va uning zaxiralaridan oqilona foydalanish asosiy masaladir.

Hozirgi paytda respublikada istiqbolga, ya'ni atrof muxitni muxofaza qilish va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish bo'yicha 2005 yilgacha mo'ljallangan

¹ Karimov I.A. Milliy istiqloq mafko'rasi - xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: O'zbekiston, 2000. 114-bet.

Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muxofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shahar birlar va shahar bir aglomerasiyalari kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Ekologik xavfsizlikni kuchaytirish, ekologik taraqqiyotga erishishning hozirgi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Kishlok, urmon va boshqa xo'jalik tarmoklaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zahar birli kimyoviy moddalarni kullash ustidan kattik nazorat urnatish. Havo va suv muxitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to'xtatish.

2. Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni kat'iy mezon asosida iste'mol kilgan xolda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor.

3. Katta-katta xududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga karatilgan, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish (daryolar okimini tartibga solish hamda suvlarni bir xavzadan ikkinchisiga tashlash yoki yerning namini kochirish, suv chiqarish tadbirlarini va boshqalarni amalga oshirish lozim.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va xayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlanG'ich baza sifatida saqlab qolish kerak.

5. Shahar birsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizasiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shahar birlarda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish zarur.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan xolda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintakaning ekologik muammolariga karatish lozim. Orol

muammosi bugungi kunda chinakam keng qulamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib qolganligini, uning ta'siri hozirning uzidayok biologik muvozanatni buzayotganligini, bepoyon xududlarda aholining genofondiga xaloqatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda tutish lozim.

Xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investisiyalarini ana shu muammolarni xal qilishga jalb etish - birinchi darajali vazifadir¹.

Har bir madaniyatli inson bu muammolarni bartaraf etish uchun ko'rashsa, jamiyatda haqiqiy ekologik madaniyat kishisi shakllanadi.

Atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Ayniqsa, atrof muxit barkarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashda milliy qonun xujjatlarining poydevori hisoblangan konstitusiyamizning ahamiyati bekiyosdir. Konstitusiyada shahs, jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xukukiy, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalari mustaxkamlangan bo'lib, bular uz navbatida ekologik xukukiy mexanizmni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu masala mamlakatimiz Konstitusiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muxitga extiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", 55-modda "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir" deb ta'kidlanadi. Shuningdek, "Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining tabiatni muxofaza qilish maqsadlariga erishish deb nomlangan 4-moddasida quyidagicha yoritilgan: "Tabiatni muxofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat xokimiyati maxalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek ayrim shahslar xo'jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagi koidalarga amal qilishlari

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafko'rasi - xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: O'zbekiston, 2000. 131-134 bb.

kerak: ... barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi".

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi" da ham Tabiatni muxofaza qilish qonuni talablarini bo'zgan yuridik va jismoniy shahslarga nisbatan jazo choralari ko'rish maqsadida Ekologiya sohasidagi jinoyatlar bulimining, Atrof muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar nomli XIV bobining 193-204- moddalarida tasdiklangan va amalda kullanilmoqda.

Ma'lumki mamlakatimizda istiqbolga erishilgach ta'lim sohasida ham muhim isloxotlar amalga oshirildi. Jumladan, oliy ta'lim tizimida tuzilishi va mazmuni jixatdan katta o'zgarishlar yuz berdi. Ularning soni ortdi, mutaxassislar tayyorlash sohaları kengaydi, jamiyatimiz talablaridan kelib chiqkan xolda kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga jiddiy e'tibor berila boshladi. Bu borada "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bugungi va istiqboldagi vazifalarni belgilab berdiki, bu vazifalar mamlakatimizda sobitkadamlik bilan amalga oshirilmoqda. Oliy o'quv yurtlari yil sayin xalq xo'jaligining barcha sohalariga ilmi va malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlab bermoqda. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida uz bilimlarini amaliy faoliyatlarida tatbik eta olishga, muntazam ravishda malakasini oshirib borishga, o'zgaruvchan ish sharoitlarida tez mo'ljal ola bilishga kodir bo'lgan pedagog, muxandis, agranom, xukukshunos, iqtisodchi, filolog, geolog kimyogar, shifokor va boshqa mutaxassisliklar egalaridir. Bu mutaxassislar oliy o'quv yurtlarini bitirgach, xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlash jarayonida atrof muxit bilan munosabatda buladilar.

Bo'lajak mutaxassislar yuksak darajadagi umumiy ekologik madaniyat va kasb maxoratini egallagan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uzlashtirgan, tabiatni muxofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan O'zbek xalqining milliy an'analarga tayanadigan bo'lsa tabiatga va uning zaxiralariga salbiy ta'sir etmaydi. Shu sababdan ham bo'lajak mutaxassislar uz kasbiy faoliyati bo'yicha chuqur bilim, yukori ekologik madaniyatga ega bo'lishlari zarur. Bu ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muhim pedagogik jarayondir.

Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, shu bilan birga sayyoramizda yuzaga kelgan ko'plab ekologik muammolar turli soha kadrlarini tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratishni, uni mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim shartlaridan biriga aylanayotganini, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Barkaror rivojlanish uchun ta'lim (BRT) bo'yicha 2005-2014 yillarga mo'ljallangan dekadasi tavsiyalarini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 7 noyabr 2005 yil № 242-sonli, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi 7 noyabr 2005 yil № 33-sonli va O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish davlat kumitasi 7 noyabr 2005 yil № 79-sonli Qarorlari bilan "Respublikada ekologik ta'limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari" to'g'risidagi Dastur va Konsepsiyasi tasdiqlandi. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya tizimini tashkil etish va uni rivojlantirishni hamda ushbu xujjatlardan kelib chiqadigan tadbirlarni amaliyotga joriy etishni ta'minlash zarur.

-tabiiy muhit va uni yaxshilash bo'yicha amaliy faoliyatni ma'naviy jihatidan uzviy birligini idrok etish;

-ekologik tarbiyaning uzluksizligini uning predmetlar va kurslar aro aloqa bog'lashi bilan amalga oshirib borish;

-ekologik muammolar umumboshoriy ayni vaqtda milliy va o'lkashunislik o'lka xarakter ahamiyatiga ega ekanligini hisobga olish lozim.

Haqiqatdan ham ekologik madaniyatni shakllantirish ta'lim tarbiya sohasidagi vazifalar, maktabni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Ekologik tarbiyaning maqsadlari;

1.tabiy atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi nazariy bilimlarning dastlabki asoslarini o'rganish.

2.hozirgi zamon ekologik siyosatning mazmuni va mohiyati bilan tanishish.

3.o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

4.o'quvchilarda ekologik obzalik yuritish prinsiplari.

2.2. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning tarixiy ildizlari

Tabiat - bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, nozu-ne'matlar manbai bo'lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz uzining milliy-tarixiy an'analariga ega. Bu an'analar doimo rivojlantirilib, boyitib kelingan.

O'tmishdan ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tug'ilish, yashash, usish-faoliyat maydoni. Inson tabiat bilan birga yashaydi, usadi, rivojlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan sung tabiatni muxofaza qilishga oid ma'naviy qadriyatlar ham xalq hayotida tularok namoyon bula boshladi.

Mustaqillik tufayli yurtimizda qadim-qadim zamonlarda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha taxlil va tadbik etish imkoniyati vujudga keldi¹.

"Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Shark xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Uzoq vaqt davom etgan kattik mafko'raviy tazyikka karamay O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi" deb ta'kidlaydi I.A.Karimov².

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda bu muammoning yechimiga intilish uzoq tarixga ega. Zero, "Sivilizasiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa..., yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir.

Yer, havo, suv va olov (Kuyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib kadrlab kelingan".

"Eng mu'tabar, qadimgi kulyozmamiz "Avesto" ning yaratilganiga 3000 yil bulyapti - dedi Prezidentimiz Islom Karimov tarixchi olimlar bilan uchrashuvida. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrgo'zaronlik kilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan

¹ Maxmudov T. Avesto haqida. - T.: Sharq, 2002. 4-bet.

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. VIII tom. - T.: O'zbekiston, 2000. 524-bet

ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi".

"Avesto" da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan ko'rashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari uz ifodasini topgan.

"Avesto" fakat odamninggina emas, balki bir xovuch tuprok, bir kultum suv, bir nafaslik havoning ham mukaddas ekanligi haqidagi kitob. "Avesto" yerning, daryolaru boG'lar, toG'laru buloklar, kulu saxrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o'simligu giyoxlarning bunyod etish tarixiga doir asar¹.

Ajdodlarimiz ekologik ta'lim-tarbiya borasida ham boy meros qoldirgan. Bunga "Avesto"da ifodalangan ekologik yo'nalishdagi qarashlar va ug'itlar, zardushtiylik bilan bog'liq an'analar, urf-odatlar, bayramlar, suvga, yerga sajda qilish, olovning poklovchi kuchiga e'tikod, ajdodlar ruxiga topinish misol bula oladi.

Zardushtiylikning yaratuvchilari turli xalqlarning tabiatga va tabiat xodisalariga topinishidan, diniy bayramlar va urf-odatlaridan ustalik bilan foydalanganlar. Uning negizidagi asosiy narsa yorokin dualizm: dunyoning ibtidosidagi nur va zulmat, ezgulik va yovuzlik bo'lib, ular yaxshilik xudosi Axura Mazda va yovuzlik xudosi Anxra Manu timsolida namoyon buladi. Ularning birinchisi ezgu xodisalar: yer, suv, havo, olovning ijodkori bo'lib, hayot, poklik, salomatlik, akl, ezgulik timsoli hisoblansa; ikkinchisi ifloslik, nopoklik, kasalliklar, ulim yaratuvchisi shu bilan birga yolg'on, yovuzlik, axloqiy tubanlik timsolidir.

Kadimgi zardushtiylarning o'ziga xos o'simlik va xayvonot olami, hayot tarzi bilan aloqador tarixiy sharoit havo, suv, tuprok va olovning iloxiylashtirilishiga olib keldi.

"Avesto" da xayvonlarga ozor bermaslik, ularni asrash chora-tadbirlari

¹ Maxmudov T. Avesto haqida. - T.: Sharq, 2002. 5-bet.

to'g'risida, turli xil suvlar va ularning foydasi haqida yozilgan. "Avesto" da maxsus bulim bo'lib, uning nomi "Suvlar kasidasi" dir. Unda Markaziy Osiyoning yirik daryolaridan biri - Amudaryo haqida suz yuritiladi.

Suvni toza tutish uchun quyilgan talablar tuprokka ham quyilgan. Ona zamin tabiatning ajralmas bo'lagi, shu sababli ajdodlarimizning yerga mexri o'zgacha bo'lgan. Ona zaminni extiyot qilishda sir-asror mul-kul, karomat kattadir, chunki yer barcha boylikning asosi, butun tiriklikning manbaidir¹. Zardushtiyar e'tikodicha, yer har bir xil iflos narsalar, ayniqsa, inson va xayvonlar jasadining kumilishidan paydo buladigan narsalardan poklanishga extiyoj sezadi. E'tikodga ko'ra, ulimning uzi ham yovuz kuchlarning ishi hisoblangan. Bu yovuz kuchlar ulimdan sung ham jasad atrofini tark etmaydi. Shunga ko'ra vafot etganlarning jasadlari TOG' koyalari, saxrolar, maxsus sokinlik minoralarida qoldirilgan va ularning suyaklarigina qolmaguncha kul tekkizilmagan. Sung suyaklar yig'ilib maxsus idish - "assuar"larga solingan va maxsus joylarga kumilgan. E'tikod qiluvchilar uchun ulik tananing mukaddas yer, suv yoki o'simliklarga tegib turmasligi favkulodda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotida atrof muxitga nisbatan madaniyatning teranligi va kuchliligi insonni xayratga soladi. Zero, uning dolzarbligi hozir ham uz kuchini saqlab qolmoqda. Bu urinda yerni ifloslantirmay va xosildorligicha saqlash, o'simlik va daraxtlarni ustirish, xayvonlarni parvarishlash kabi masalalar kuzda tutilgan.

Axlatlarni maxsus usulda tozalash lozim bo'lgan. Toza va kuruk axlat masalan, singan idish, suyaklar yerga zarar keltirmaydigan narsalar sifatida kumib tashlangan. Qolgan barcha narsalar tomida tuynuksimon teshigi bo'lgan kichiqrok uychaga to'plangan hamda vaqti-vaqti bilan ishkor ta'sirida yuk qilib turilgan.

Zardushtiylik akidalarida insonga ongli jonzot sifatida qarash aloxida ahamiyat kasb etgan. U shu sababli ham atrof muxitni saqlash uchungina emas, balki uzining jismoniy sog'ligi, axloqiy-ma'naviy xolatini kuzatish, karindosh-

¹ Sobirov U. Ekologik madaniyat shakllanish tarixidan. // Ekologiya xabarnomasi. - T.: № 3. 2005. 17-bet

uruG'lari haqida g'amxo'rlik ko'rsatishga ham mas'ul qilingandir. Shuning uchun "Avesto" da tabiatni - ya'ni suv, tuprok, olov, havo, kuyoshni e'zozlash va insonning yaratuvchanlik mexnatini uluG'lash birlamchi ahamiyat kasb etgan.

O'zbek xalqining yil fasllari almashuvi, xosilni yig'ib-terib olish bilan bog'liq umumxalq bayramlari ham maxsus ekologik mazmun bilan boyitilgan. Ular orasida eng ommaviy bayram "Navruz"dir. U zardushtiylarning astrologik takvimlarida aloxida ahamiyat kasb etgan.

"Navruz" O'zbek xalqining tabiat, yer va uning in'omlariga bo'lgan muxabbatining o'ziga xos jamuljamidir. U O'zbekistonda bahor va mexnat bayrami hisoblanadi. Shunga ko'ra uzida nixoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mexnatsevarlik, insonparvarlik, o'zaro xurmat, muxabbat, ezgulik, adolat, dustlik va boshqa ijobiy fazilatlarni mustaxkamlashga imkon yaratadi.

"Navruz" bayrami bahorning boshlanishida utadi. Bu paytda dexkonlar yerga dastlabki uruG'ni kadashadi, mevali va manzarali daraxt kuchatlarini o'tkazishadi, yerni "bezash"ga har birakat qilishadi, toki u kishilarga ezguliklar keltirsin, ularning kalbiga umid va ishonch tuyg'ularini singdirsin, yaqin karindoshlar hamda dust-yorlar bilan munosabatda uzlarini erkin va baxtli xis etishsin.

Kadimgi an'analarga ko'ra bu paytda kishi quyidagi shartlarni bajarmog'i kerak: kucha va xovlilarni tartibga keltirish, tozalashda ishtirok etishi, daraxtlarni oklash, kuchat (kamida uchta) hamda gullar o'tkazish, xushchakchak va shoduman yurishi, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, urushgan kishilar bilan yarashish, xalol va munosib hayot kechirishga intilish. Shunga ko'ra, ekologik madaniyat tamoyillari, me'yorlari antropogen omillar har birakteriga ega bo'lib fakat insonning bevosita tabiat bilan bo'lgan munosabatlaridagi har birakatlarigagina tatbik etilgan va baholangan. Barcha insonlar ana shu ulchov me'yoriga amal qilganlar. Shu sababdan ham suvga tuflama, suvga suprindi tashlama, suv okkan arikni iflos kilma, havoni ifloslama kabi fikrlar ular uchun dasturi amal bo'lgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlar va marosimlarida yer, suv, havo, atrofdagi o'simlik

hamda xayvonot dunyosiga extiyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Ular to'plagan ekologik tajribasining bir avloddan ikkinchi avlodga, bir xalqdan boshqa xalqqa vorisiyligini ta'minlash muhimdir.

Tabiat, jamiyat va hayotni inson uchun yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'mat sifatida talkin etish, uni asrab-avaylashga da'vat etish qadimgi ma'naviy merosimizning buyuk gumanistik mazmunini tashkil etadi. "Avesto" - buning yorikin namunasidir¹.

Islom ta'limotida ekologiya muammosiga aloxida e'tibor berilgan. Qur'oni karim va Hadisi sharifda tabiatni muxofaza qilish, boyitish, pokiza saqlashga oid pand-nasixatlar o'z aksini topgan.

Qur'oni karim kitobi insonlarni tabiat bilan uyg'unlikka da'vat etadi. Jumladan, "Furkon surasi" ning 2-oyatida: "Allox hamma narsani yaratdi va ulchovini mukammal kildi", deyiladi. Ya'ni dunyodagi har bir bir narsa - suv ham, tuprok ham, havo ham, xayvonot olami ham, nabobat olami ham Allox taolo tomonidan muayyan ulchov bilan bir-biriga o'zaro bog'liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanatlik bo'ziladigan bo'lsa, tabiat uchun, shu jumladan, inson uchun ham jiddiy muammolar kelib chiqishi extimoli nixoyatda katta.

Allox taolo iloxiy kitoblarda insonni ulug'lab, unga tabiatni asrab-avaylash, uz ne'matlaridan baxramand bo'lish, ularni nobud kilmay, ezgu maqsadlarga ishlatishni amr etgan. "A'rof surasi" ning 56-oyatida Parvardigor shunday deb amr qiladi: "Obod qilib quyilgan Yer yuzida bo'zg'unchilik ishlarini qilmang".

Shuningdek, "Al-Isro" surasi tunggi sayr degan ma'noni bildiradi. Bunda borlikdagi barcha jonli-jonsiz mavjudot o'zaro bog'lanishda ekanliklari to'g'risida aytilgan. "Raxmon" surasida jannatga ta'rif beriladi, "Duoxon" tutun degan ma'noni anglatib, bunda ham duzax va jannat manzaralari haqida ta'riflanadi. "Shuaro" surasidagi Nux payg'ambarning kemasida odamlar bilan xayvonlar va parrandalarning saqlab kolinishi xikoyatlari, "Naxl" asalari, "Naml" chumoli deb nomlangan suralarida ham zaif va zaxmatkash maxluklarning ibratli hayot tarzi

¹ Maxmudov T. Avesto haqida. - T.: Sharq, 2002. 5-bet.

haqida xikoya qilinadi.

Islom ta'limotining yetuk namoyandalaridan biri, 4-jildli "Al- jomi' as-sahih" xadislari yozgan Abu Abdullox Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy ham tabiat va uning ne'matlari haqida, tabiat in'omlarining inson uchun yaratilganligi va ulardan oqilona foydalanish, kuchat ekish, yer xaydash va ijaraga berish, ulik yerni jonlantirish, suv, ov va ovga tasliya aytmok haqida kitob yozganlar. Xddisi sharifda tabiatni muxofaza qilish to'g'risida fikrlar bildirilgan. Jumladan: soyasidan xalq foydalanib to'rgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri duzaxga maxkum etadi; dunyo yam-yashil va guzaldir, kimki undan xakli ravishda xalollik bilan olsa, baraka topadi, kimki nafs xoxishi bilan boylikka mukkasidan ketsa kiyomat kuni duzaxdan boshqa narsaga erisha olmaydi; dunyoni bo'zib, bulG'ab yurgan kishi mening ummatim emas; yenglar, ichinglar, sadaka qilinglar, ammo isrofgarchilikka utmanglar; tangri pokdir, poklikni yaxshi ko'radi, saxiydir-ki saxiqlikni yaxshi ko'radi; xovli saxni va turar joylaringizni toza tutinglar; bu dunyoda jonivorlarga kattik azob beradigan kishilarni tangri kiyomat kuni kattik azoblaydi; kuy barakadir, tuya axliga izzatdir; ekmoq niyatida qo'lingizda kuchat to'rgan paytda bexosdan kiyomat koyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib quying kabi xadis namunalaridan keltirishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati xalqni atrof muxitga nisbatan ekologik madaniyatining ko'pkirrali bo'lganligini ko'rsatadi. U tarixan taraqqiy etib kelgan insoniyat tajribalari davomiyligining muhim omili bo'lganligidan darak beradi.

Xalq ekologik madaniyati ana shu evolyusion ziddiyatli jarayonda shakllangan. Ajdodlarimiz atrof muxitning rang-barang ko'rinishlarini saqlab qolish uchun tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga amal kilganlar.

Ota-bobolarimiz o'tmishda tabiat zaxiralaridan pala-partish foydalanishni takiklaganlar, suvdan foydalanishda uni isrof va iflos kilmaslik (ayniqsa, chul xududlarida sardobalar bunyod etish), yer, o'simlik va xayvonot dunyosiga oqilona munosabat, xunarmandchilikda chiqitsiz ishlab chiqarishni yo'lga quyish, dexkonchilik va chorvachilik uchun ajratiladigan yerlar mutanosibligiga

muntazam e'tibor berish, farzand tug'ilishi bilan kuchat o'tkazish, bahor paytida arik va zovurlarni tozalash, yo'l, ko'priklarni ko'rish va saqlashda bahorgi xashar usulini kullash, ozik-ovkat maxsulotlaridan tejab-tergab foydalanish, mollarni semirtirib suyish kabi ekologik muammolarga amal qilishganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davrlardayok uzlarini tabiatning bir qismi ekanligini anglab, tabiatga xurmat bilan karaganlar. Uz bolalarini tabiatga nisbatan chuqur xurmat, e'tikod ruxida tarbiyalaganlar.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zaxiriddin Muhammad Bobur tabiat fanlarining rivojlanishiga katta xissa kushganlar. Amir Temur, Alisher Navoiy kabi davlat arboblari esa butun umr davomida obodonchilik va suG'orish ishlari, boG'-roG'lar barpo etish bilan shuG'ullanganlar. Ular xali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va xayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida kimmatli fikrlar aytganlar.

Ular uz asarlarida tabiatni asrash va uning boyliklariga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni saqlash va ko'paytirish zarurligini uktirganlar va unga uzlari amal kilganlar. Ular dunyoni ilmiy bilishga, inson ongida tabiat va olamni umumlashtirish jarayonlari, buning natijasida esa tabiatdagi barcha jonzotlar orasida mavjud bo'lgan o'zaro aloqadorlikni ekologik nuktai nazardan ilmiy asoslab berganlar.

Buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy (782-847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: "Biling-ki, daryoning ko'zlari yoshlansa uning boshiga g'am, kulfat tushgan buladi. Odamlar, daryodan mexringizni darig' tutmanglar". Dunyoning yoshli ko'zlari deganda Muhammad al-Xorazmiy nimalarni kuzda tutdi ekan? Extimol, u daryo suvining ortikcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaxolanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishlari, o'zaro mexr-muxabbat quyishlarini nazarda tutgan. Xorazmiy 847 yili "Ma'mun akademiyasi" olimlari bilan olib borgan tadqiqot ishlarini umumlashtirib "Kitab surat al-arz" ("Yer tasviri") kitobini yozgan.

Xorazmiy ushbu kitobda 637 ta noyob tabiiy joylar, 209 ta to'g'ning geografik tafsilotini bergan. Shuningdek, asar butun dunyo kit'alar, okeanlar, kutblar, ekvator, saxrolar, kullar, urmonlar, turli mamlakatlar, o'lkalar, u yerdagi xayvonot, o'simlik dunyosi va boshqa tabiiy resurslar haqidagi ma'lumotlarni uz ichiga oladi. Xorazmiyning mazkur asariga kiritilgan har biritalarda yer yuzi yetti iqlimga bo'lib chizilgan, shundan fakat turttasigina bizgacha yetib kelgan¹.

O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fikrining eng yirik va mashxur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (870-950) ilmiy- falsafiy merosi nixoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ruyxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltiriladi. Bu asarlar bir necha guruxlarga bulinadi. Shulardan 11 - guruxga Forobiyning tabiatshunoslik ilmi, amaliy faoliyat va xunarmandchilik masalalariga oid asarlari kiradi. Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoklari bilan shuG'u'llangan bo'lib, "Kitob al-xajm va al-miqdor", "Kitob al-mabodi al- insonia" ("Insoniyatning boshlanishi haqida kitob"), "Kalam fia'zo al- xayvon" ("Xayvon a'zolari to'g'risida kitob") nomli asarlari bunga dalil bula oladi. Ularda inson va xayvonlar organlari, ularning funksiyasi, bir- biriga uxshash xossalari va tafovuti kabi masalalar yoritiladi. "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi" asarida tabiiy fanlarni izoxlashda u minerologiya, xayvonot va o'simliklar olami, ularning turlari va har birakterli xususiyatlariga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, tabiatshunoslik ikki xil tanlash - bu inson kuli va faoliyati bilan yuzaga keltirilgan tanlash va tabiatning uzi yaratgan tanlash ajratiladi. Shu sababli, u sun'iy turlar vujudga kelishini birinchilardan bo'lib ta'riflagan va biologiya hamda fiziologiya (birlimchi va ikkilamchi signal sistemalari to'g'risida) fanlari rivojiga munosib xissa kushgan.

Ulug' alloma Abu Rayxon Beruniyning (973-1048) fikricha inson tabiat koidalariga rioya kilgan xolda borlikni ilmiy ravishda to'g'ri o'rgana oladi. Beruniyning ilmiy qarashlari asosan "Saydana", "Mineralogiya", "Kadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya" kabi asarlarida

¹ Sobirov U. Ekologik madaniyat shakllanish tarixidan. // Ekologiya xabarnomasi. - T.: № 3. 2005. 17-bet

uchratiladi. Beruniyning "Hindiston", "Kadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya" kabi asarlarida turli xalqlarning ekologik qarashlari, an'ana, urf-odatlarini, ularning tabiat bilan aloqador bayramlari tavsif va taxlil qilingan. U uzi ishlab chiqqan hamda irqiy, mazxabiy kamsitishlardan xoli bo'lgan ilmiy-qiyosiy metod asosida qadimgi misrliklar, yunonlar, rimliklar, forslar, manixeylar, islomgacha bo'lgan arablar, induslarning urf-odatlarini tavsiflaydi, ularning tabiatga munosabatlaridagi axloqiy qadriyatlarini ta'kidlaydi.

"Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" asarida Eronning turli tropik o'simlik va xayvonot dunyosini bayon etgan. Ushbu asarda o'simlik va xayvonlarning tashki muxit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda o'zgarishi misollar bilan tushuntirilgan. Beruniyning tabiiy va sun'iy tanlash haqidagi fikri ayniqsa diqqatga sazovordir, bu undan keyin 900 yil utgach, mashxur ingliz olimi Charlz Darvin tomonidan asoslangan evolyusion ta'limotni, bashorat qilishi edi¹.

Beruniy "Saydana" degan asarida 1116 tur dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi xayvonlardan, 255 tasi esa minerallardan olinadi. Har bir o'simlik, xayvon va minerallarning xossalari, tarkalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.

"Hindiston" degan asarida o'simlik va xayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashki muxit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. "Hindiston" asarida jirafa, delfin, karkidon, kiyik, fil va boshqa xayvonlar, kushlarning tarkalishi, tashki ko'rinishi, xususiyatlariga batafsil to'xtab utgan. Beruniy uzining ilmiy-nazariy tadqiqotlari, tajribalari asosida barcha tabiat xodisalari ma'lum qonuniyat asosida yuz beradi va ularni xech kanday tashki kuch o'zgartira olmaydi, degan xulosaga keladi. Beruniyning to'plagan ma'lumotlarini xulosalaganda shunga ikror bulamizki, barcha millatlarda insonlarning tabiatga nisbatan uyg'unligi namoyon buladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) jahon madaniyatiga buyuk xissa qo'shgan olimlardan biridir. Yirik ensiklopedist olim sifatida u uz davri ilmining deyarli

¹ Sobirov U. Ekologik madaniyat shakllanish tarixidan. // Ekologiya xabarnomasi. - T.: № 3. 2005. 18-bet

barcha sohalari bilan shuG'ullangan. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortik asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha esa uning 240 ta asari yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida "Tib qonunlari" shox asari tibbiyot ilmining komusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarkalishining oliy chukkisi hisoblanadi. Ushbu asarda insonni urab to'rgan atrof muxit, tabiatdagi o'simliklar dunyosi kasallarni davolash uchun dori-darmon vazifasini utashi ta'kidlangan. Bu qarashlar hozirgi vaqtda ham tibbiyotda keng kullanilmoqda. O'tmishda alloma kasallarni davolashda havo, suv, tuprok, iqlim, ozik-ovqat, yashash joyi muhimligini ko'rsatgan. Bularning inson salomatligiga ta'sirining muhimligiga aloxida e'tibor berganlar. BuG', tutun va boshqa narsalar bilan ifloslangan havoning inson salomatligiga salbiy ta'siri taxlil qilingan. Suvni tozalashga oid tavsiyalar berilgan. Kasalliklarning paydo bo'lishi va uni davolashda hayotiy sharoit xal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. "Tib qonunlari"ning maxsus bobi inson salomatligini saqlashga baG'ishlangan. Asarda shu narsa juda ochiq ko'rinadiki, davlatning kuchliligi, insonlar sog'lig'i bilan chambarchas bog'liqdir.

Abu Ali ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashxur asari "Kitob ash-shifo", ya'ni "Davolash kitobi"da bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, har birakat, borlik kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek matematika, kimyo, botanika, zoolgiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Ibn Sinoning "Yer yuzida chang va tutun bulmasa, inson ming yil yashar edi" degan iborasining qanchalik to'g'ri ekanligi bugungi kunda isbotlandi.

Soxibkiron Amir Temur (1336-1405) har bir doim mamlakatda (kulga kiritilgan yerlarda ham) birinchi navbatda obodonchilik, yerlarni o'zlashtirishga katta e'tibor bergan. Soxibkiron ko'rik va bo'z yerlarni o'zlashtirganlarni, koriz ko'rgan yoki biror 6og' kukartirganlarni raG'batlantirgan. "Temur tuzuklari" da yangi o'zlashtirilgan yerlardan "Birinchi yili undan xech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat uz roziligi bilan berganni olsinlar, uchinchi yili esa qonun-koidaga muvofik xiroj yiG'ilsin", deb ta'kidlanadi. Soxibqiron Samarqandda 12 ta bog' yaratadiki, ularning har bir biri o'ziga xos tabiiy muxitga ega bo'lib, iqlimiga,

yeriga, nomiga g'oyat katta e'tibor beradi.

Tabiatga bo'lgan mexr-muxabbat, adolat tuyg'usi Alisher Navoiy (1441--1501) siymosida aloxida urin tutadi. A.Navoiy raxbarligida unlab kanallar kazilgan, xovuzlar, kuduklar, sardobalar barpo qilingan. Shuningdek Navoiy qarashlarida suvni isrof qilish - nonni isrof qilishdek gunox ekanligini, xovuz, kuduk, sardoba suvini toza saqlash hamma uchun ham savob, ham farz ekanligini tushuntirilgan. A.Navoiy tabiatga yoki biron-bir jonzotga xiyonat qilishni, dustga xiyonat qilishni koralagan. U bunday deb yozadi: "dehqon agar to'g'rilik bilan don sochsa, xar biriga yuz eshigini ochadi, sochgan donasi ko'karguncha, urib xirmon qilib, xosilni ko'targuncha, kurtu kush undan baxramand buladi, dasht vaxshiylari u bilan shodlanadi. Chumolilar uyi undan obod, xayvonlar kungli u bilan shod. Kaptarlar undan mast buladi, to'rg'aylar undan sevinchga tuladi". Navoiy "Hamsa" sidagi 5 dostonida ham tabiatga, xayvonotga aloxida to'xtalgan. Asarlardagi kaxramonlar uzining shodu xurram kunida ham, qayg'uli kunlarida ham tabiat qo'yniga yo'l olishadi, bog'da o'z sevinchu yoki xasrat-dardlarini baham ko'rishadi .

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) asarlari bamisoli tagi yo'q xazinadir. "Boburnoma" uning eng yirik asaridir. Asarda Boburning ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlar, xayvonoti, o'simliklari tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keraklicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar va toponimik manbalarga boy. Unda yer, suv, havo turli tabiiy xodisalarga o'lkamiz tarixi, geografiyasi, tabiati, etnografiyasi, madaniyati to'g'risidagi beqiyos manbadir.

Bugungi kunda o'tmish ajdodlardan qolgan an'ana va urf-odatlar uchun o'zaro bog'langan ikkita ijtimoiy vazifa mavjud:

a) O'zbek xalqiga xos munosabatlarni mu'tadillashtirish;

b) an'ana va urf-odatlarini qayta ishlab, yosh avlod hayotiga singdirish va takomillashtirish.

Tabiat boylıklariga extiyotkorona munosabat va undan oqilona foydalanishga oid boy tarixiy merosning qayta tiklanishi va rivojlanishi yo'nalishida faol ish olib

borish yosh avlodning ekologik madaniyati, ma'naviy imkoniyatlarini oshirishning asosi bo'lib, u yoshlarda ona-Yer, ona-Vatan bilan faxrlanish tug'ularini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz ekologik ugitlarining unutilishi, tabiat zaxiralariga uylamay-netmay isrofgarchilik bilan munosabatda bo'lish O'zbekiston xududida ham yuz bergan. Buning oqibatida ko'plab ekologik muammolar yuzaga keldi. Shuning uchun ekologik tarbiyadagi eng muhim yo'nalish, Respublika xududidagi hozirgi zamon ekologik buxronlarni ilmiy asoslash va uni maqsadga muvofik tarzda ilmiy-amaliy jixatdan o'rganish, yoshlarlardagi ekologik nuksonlarni bartaraf etish va ularni ekologik muammolarni xal etishga kodir ekologik madaniyatli insonlar qilib shakllantirish muhim pedagogik muammo bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida ekologik buxronli jarayon va uning sabablari tasvirlanib, ekologik muvozanatning bo'zilishini oldini olish uchun ko'rash yo'llari ko'rsatib berilgan. Bu borada kabul qilingan qonun va karorlar bilan yoshlarni tanishtirish ham muhim urin tutadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muxitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar quyilgan. Bunda tabiatni muxofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida karaladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq xolda tabakalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida uz ifodasini topadi.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni har bir tomonlama rivojlangan shahs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy xal qilishdagi kunikmalarning rivojlantirilishini uzida qamrab oladi.

Sayyoramizda jumladan, respublika xududida vujudga kelgan ekologik

vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni xal etishni muhim vazifa etib kuyadi, ular:

1) yoshlarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponent-larini yaxlitlikda va o'zaro aloqadaligini xis etish;

2) tabiatning yoshlar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi;

3) atrof muxitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;

4) tabiat yoshning ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;

5) atrof muxitga nisbatan ekologik madaniyatni shakllantirishda yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan xolda ta'lim- tarbiya jarayonida atrof muxitni muxofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab yetishlariga ilmiy-amaliy jixatdan sharoit yaratish;

6) ekologik madaniyatni shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish;

7) ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.

Shular asosida yoshning ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jixatdan ta'minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o'quv materiallarini tanlash, tabiatni muxofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular moxiyatini yoshlar ongiga singdirish, insonning tabiat xodisalarini anglashi, mazkur xodisalarning hayotiyligi, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.

Bizning fikrimizcha yoshlarga urgatiladigan ekologik bilim mazmuni uz ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- yoshlar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;
- tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jixatdan yoritib berish;
- yoshlar tomonidan ekologik qonuniyatlarning uzlashtirilishiga erishish;

- tabiatda sodir buladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning moxiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy G'oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini xosil qilish;

- tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muxofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;

- Respublika xududidagi biologik xilma - xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va g'oyalarni o'rganishni tashkil etish;

- ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar xajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jixatdan ishlab chiqish;

- atrof muxitni muxofaza qilish, uning zaxiralaridan unumli foydalanishga urgatish;

- yoshlarni atrof muxit bilan mulokot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda atrof muxitga nisbatan faol ta'sir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirish.

Ekologik ta'lim mazmuni: psixologik, pedagogik, shahs faoliyatiga yo'naltirilgan omillarga tayanadi:

- tabiatga nisbatan ekologik ongli munosabatda bo'lish zaruriyatini anglab yetish;

- tabiat baG'rida yashash, rivojlanish va milliy boylik ekanligini xis kila bilish;

- atrof muxit bilan mulokotlarning turini tanlashga oid xulosalar chiqarishda tabiiy-ilmiy, texnik va gumanitar bilimlarga tayanish;

- tabiat bilan mulokotda bo'lganda milliy tarixiy taraqqiyotga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanish zarur.

Shunday kilib, yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ular ekologiyaga oid quyidagi kunikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- ekologik muammolarning paydo bo'lish sababini ilmiy-amaliy jixat- dan

aniqlay olish;

- tasodifan xosil buladigan antropogen omillar xolatini hamda uning salbiy oqibatlarini anglash va undan ximoyalanish;

- tabiat zaxiralaridan foydalanishga oid amaliy, aniq ma'lumotlarni olish, taxlil qilish va undan xulosa chiqarish;

- ekologiyaga oid oddiy tadqiqot ishlarini o'tkaza olish, olingan natijalarni taxlil etib, xulosa chiqarish;

- maxalliy, xududiy, umumbashariy ekologik muammolarni ilmiy-amaliy jixatdan o'rganish, taxlil etish va bartaraf qilishda faollik ko'rsata olish.

Ekologiya o'z mazmuniga ko'ra insoniyatning tabiat obyektlari bilan buladigan barcha xilma-xil aloqalari mohiyatini aks ettiradi. Shunga ko'ra, endilikda shahar bir, ishlab chiqarish, texnika, kishlok xo'jaligi, suv xavzalari, o'simliklar, xayvonot olami, inson, maxalla ekologiyasi kabi tushunchalar mavjud. Ekologik tushunchalarni ekologiya fani uz ichiga qamrab oladi. Bu umumiylik, shahs dunyoqarashiga oid xalqaro, xukukiy, siyosiy, estetik yo'nalishlarni ham qamrab oluvchi tizimli mazmunni uzida aks ettiradi. Shu sababdan ham ekologik ta'lim mazmuni tabiiy, aniq, ijtimoiy o'quv fanlariga oid bilimlar sintezini uzida ifodalaydi va aksincha, barcha o'quv fanlari umumiy ekologiya o'quv fani mazmunini uzida singdiradi va ekologiya fani amalda o'rganiladigan o'quv fanlarini ongli ravishda uzlashtirishga imkon yaratib, yoshda fan asoslarini o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Ularning integrallashgan xolati yoshda ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shunga ko'ra ekologik ta'lim ko'p kirrali hisoblanaib, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun ularning mutaxassisligiga karab ma'ruzalarni tashkil etish yaxshi natija berdi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ma'naviyat tarixan inson xulqi me'yorlarini, uning jamiyat va tabiatga bo'lgan munosabatlaridagi mas'uliyatini aniqlaydigan mezon bo'lgan. O'zbek xalqi tarixi yosh avlodlarda ekologik madaniyatni shakllantirishga doir boy ijodiy merosga ega bo'lib, bu merosni o'rganish, hayotga tatbik etish hamda kelajak avlodlarga yetkazish shu kunning eng muhim vazifasidir.

2.3. Tarix darslarida o'quvchilarda ekologik mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish usullari

Ekologik ta'limning kengayishi tabiiy muhitga ta'sirni e'tirof etib qolmasdan bevosita ko'p hollarda xususiy xarakterga ega bo'lib bunday xatti xarakatlarning oqibatlarini hisobga olmaydigan mavjudotni falokatga maxkum qiladigan yoki aksincha uning haddan ziyod ko'payib ketishiga olib keladigan ta'sirning oldini loish imkoniyatini yaratdi. Shunday ekan kishilar va o'quvchi yoshlar ongida ekologik ongni shakllantirishda esa ta'limning tabiiy muhitga munosabati ekologik ma'suliyatni rivojlantirib boorish va uni takomillashtirish muhim o'rin egallaydi.

Bizga ma'lumki ayni vaqtlarga kelib odamzodning intellektual salohiyati va texnik texnologik imkoniyatlari ortib borayotgani sayin hududiy hamda global miqyosidagi turli-tuman muammolar ham ko'paydi.

Bu hol o'z navbatida ushbu muammolarning oqilona yechimini topish uning nazariy-metodologik asosini ilmiy nazariy uslublarini vosita va mexanizmlarini yaratishni taqoza etadi. Bu vazifani bajarish:

Birinchidan moddiy ishlab chiqarishni texnik-texnologik jaroyonlarni ekologik talablar asosida tashkil etish.

Ikkinchidan aholining faolligi ma'suliyatini oshirishning huquqiy asoslarini mustaxkamlash;

Uchinchidan ekologik monitoring sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini mofiqlashtirish hamda ekologik ong va madaniyatning rivojlanish darajasiga bog'liq!

Shunday ekan biz pedagoglar o'quvchilarda ekologik ma'suliyat va madaniyatni shakllantirish jarayonida o'quvchi ongiga ekologik huquqini ham ya'ni tabiatni huquqiy muhofaza qilish bilimini berishimiz lozim. Shu mavzu bilan bog'liq muammolarni ham nafaqat O'zbekiston balki jahonshumil ahamiyatga molik vazifalardan biridir. O'quvchilarda

Ekologik ma'suliyat va madaniyatni rivojlantirishda asosan eng kerakli adabiyotlardan"

“O‘zbekiston Respublikasi qonunlari” dan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Ansambleyasi 48-sessiyasi ma’ruzasidan,- “O.Karimova, X.To‘ychiyevlarning davlat va huquq asoslari “ o‘quv qo‘llanmasi va boshqa tabiat muhofazasiga oid manbalardan foydalanishimiz mumkin.

Biz bu adabiyotlar orqali o‘quvchilarda tiriklik go‘zallik ma’naviyat singari tuyg‘ularni fazilatlarni mushohada qiluvchi kelajakda umid ko‘zi bilan qarashga da’vat etgan bo‘lamiz. Uning uchun yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek ya’ni ma’naviyat saboqlarini ommaviy ravishda olib borishimiz lozim:

Tabiatni, jamiyatni qolaversa inson o‘zini samarali muhofaza qilishda ekologik madaniyatning o‘rni muhimdir!

Ekologik ta’limning kengayishi tabiiy muhitiga ta’sirni e’tirof etib qolmasdan bevosita ko‘p hollarda xususiy xarakterga ega bo‘lib bunday xatti xarakatlarning oqibatlarini hisobga olmaydigan mavjudotni falokatga maxkum qiladigan yoki aksincha uning haddan ziyod ko‘payib ketishiga olib keladigan ta’sirning oldini loish imkoniyatini yaratdi.Shunday ekan kishilar va o‘quvchi yoshlar ongida ekologik ongni shakllantirishda esa ta’limning tabiiy muhitga munosabati ekologik ma’suliyatni rivojlantirib boorish va uni takomillashtirish muhim o‘rin egallaydi.

Bizga ma’lumki ayni vaqtlarga kelib odamzodning intellektual salohiyati va texnik texnologik imkoniyatlari ortib borayotgani sayin hududiy hamda global miqyosidagi turli-tuman muammolar ham ko‘paydi.

Bu hol o‘z navbatida ushbu muammolarning oqilona yechimini topish uning nazariy-metiodologik asosini ilmiy nazariy uslublarini vosita va mexanizmlarini yaratishni taqoza etadi. Bu vazifani bajarish:

Birinchidan moddiy ishlab chiqarishni texnik-texnologik jaroyonlarni ekologik talablar asosida tashkil etish.

Ikkinchidan aholining faolligi ma’suliyatini oshirishning huquqiy asoslarini mustaxkamlash;

Uchinchidan ekologik monitoring sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini mofiqlashtirish hamda ekologik ong va madaniyatning rivojlanish darajasiga bog'liq!

Shunday ekan biz pedagoglar o'quvchilarda ekologik ma'suliyat va madaniyatni shakllantirish jarayonida o'quvchi ongiga ekologik huquqini ham ya'ni tabiatni huquqiy muhofaza qilish bilimini berishimiz lozim. Shu mavzu bilan bog'liq muammolarni ham nafaqat O'zbekiston balki jahonshumil ahamiyatga molik vazifalardan biridir. O'quvchilarda

Ekologik ma'suliyat va madaniyatni rivojlantirishda asosan eng kerakli adabiyotlardan", "O'zbekiston Respublikasi qonunlari" dan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Ansambleyasi 48-sessiyasi ma'ruzasidan,- "O.Karimova, X.To'ychiyevlarning davlat va huquq asoslari " o'quv qo'llanmasi va boshqa tabiat muhofazasiga oid manbalardan foydalanishimiz mumkin.

Biz bu adabiyotlar orqali o'quvchilarda tiriklik go'zallik ma'naviyat singari tuyg'ularni fazilatlarini mushohada qiluvchi kelajakda umid ko'zi bilan qarashga da'vat etgan bo'lamiz. Uning uchun yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ya'ni ma'naviyat saboqlarini ommaviy ravishda olib borishimiz lozim:

O'quvchilarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirib borishda , tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat shakllari va konsepsiyalaridan kelib chiqadigan hamda ekologik qonunlar maqsadi va mohiyatini belgilab borishda jamiyatdagi ekologik munosabatlarning asosiy prinsiplari yoki tamoyillarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarda ekologiyani maqsadini tushuntirib yoki yoritib berishda bu prinsiplar asosiy ro'l o'ynaydi. Ular quyidagilardan iboratdir:

1.Ta'biy hodisa va jarayonlar quyi qirraligidir. Shuning uchun ham ular har tomonlama obektiv baxolanishi kerak.

2.Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mintaqaviydir, ya'ni ekologik tadbirlarni mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda olib boorish kerak.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishining tayanchi bo'lgan (tayanchi bo'lgan) tabiat boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ulardan har tomonlama (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy) baholashni, istiqbolli yo'nalishini aniqlashni mahalliy va ekologik sharoitlarni inobatga olgan holda amalgam oshirishni talab qiladi.

3. Ekologik mintaqaviy prinsipni davomi sifatida shuni aytish kerakki tabiatning ma'lum bir obektini muhofazalash yoki uni bo'zish qolgan tabiiy obektlarga o'z ijobiy yoki salbiy tasirini albatta o'tkazadi ya'ni zanjir reaksiyasi usulida ishlaydi.

Ekologik ta'lim-tarbiya kompleksli tarbiya bo'lib u inson tug'ulgandan to umrining oxiriga qadar amalgam oshishi kerak. Ekologik ta'lim-tarbiyaning tuzilmasi quyidagicha bo'ladi:

Oila-bog'cha, umum-bo'lim maktablarida hal etiladi. Chunki bu bosqichda hamma ta'lim oladi. Ekologik ta'lim-tarbiya uzluksiz tizimni amalgam oshirish uchun avvalo o'qituvchi malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlarining barcha kurslarida dasturlarida ekologik tarbiyasiga o'rin berish kerak.

Xullas, ekologik tarbiyaning maqsadi o'quvchilarda tabiatga, ona-vatanga mehr-muhabbatini oshirish, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarda ekologik ma'suliyat va madaniyatni shakllantirish davr talabi.

1§. O'quvchilarda ekologiya haqida tushuncha hosil qilish.

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli fanda yangi ta'limotni –“ekologiya” ni yuzaga keltirdi. Birinchi bor “ekologiya” so'zini (grekcha vikos uy yashash joyi, “logos”–fan talimot) fanga nemis biolog olimi “Ernest Gekkel”, “Umumiy marfalogiya” (1966 yil) kitobining so'z boshida ekologiya haqida fikrlarini bayon etgan. Bu fan sohasida aynan XIX asr II yarmida Yevropa qit'asining eng rivojlangan qismida biolog olimlar tomonidan etirof etilishi bejiz emas edi. Chunki osha vaqtda aynan sanoat gurkirab rivojlangan Germaniyada atrof tabiiy holatning keskin ravishda yomonlashuvi Rur havzasida ekologik inqirozli

vaziyat yuzaga kelishi kishilar va tirik organizmlar hayoti bilan shug'ullanuvchi biloglarni tashvishga soldi va bu yangi fanni olg'a surishga asos bo'ldi.

Ekologik atamasidan shu ma'noda foydalanish bugungi kunda ham keng tarqalganligining guvohimiz, zero uning ahamiyati kundan-kunga ortmoqda. Ekologiya tarixi qadimgi Yunoniston va Rim natura faylasuflari asarlaridan boshlansada, qimmatli ekologik kuzatishlar K. Linney, T.Byulon, P.Talasa kabi XVIII asr tabiatshunoslari tomonidan bajarilgan. Hozirgi zamon ekologik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari butun biosferani qamrab oluvchi jarayonlarga o'zaro ta'sirini o'rganishdan iboratdir.

Ekologiya o'zining momtoz ma'nosi doirasi yohud u yoki bu fanning faqat bir bo'limi bo'lishidan allaqachon chiqdi. U faqat turli-tuman tabiiy ijtimoiy texnik fanning ekoklogik omillari majmui hatto uning yaxlit kurashini ifodalaydi. U boshqa fanlardan farqli o'laroq ma'lum qa'tiy qiyofali obyekt bo'lmay umuman olganda deyarli barcha hozirgi zamon bilimlari va madaniyatining ich-ichidan o'tadi. Shuning uchun uni alohida fan sifatida o'qitish kutilgan samara beradi. Ekologiya bilimlarning bo'lishi umumekologiya jumladan gioximiyaviy ekologiya global ekologiya, shahr ekologiyasi, tibbiyot ekologiyasi va ijtimoiy ekologiyalar ham murakkab masalalarning qismlaridan boshqa narsa emasdir.

Ekologiyani alohida fan sifatida o'tilishi ham bu muammoni yecha olmaydi , ekologiya bo'limi kishi ongiga yaxlit bir jarayonning boshqa tarkibiy qismi – ekalogiktarbiya bilan bir qatorda o'z tasirini o'tkazishi kerak .Ekologiya har bir madaniyatli kishining fikirlash tarzi hayot tarzi odati ko`nikmasiga aylanishi lozim.

O'sib kelayotgan yosh avlod ongiga tabiatga bo'lgan muhabbatini shakilantirish bilan birga ekologik m'suliyat va madaniyatni rivojlantirishimiz lozim. Ekologiyahaqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilish uchun yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilar orasida o'zaro savol-javob uyushtirilsa yanada tushunarli bo'ladi. Lekin har qanday tarbiya oilada qanday sharoitga ega ekanligiga qarab boshlanadi. O'quvchilarda ekologiya haqida ilk tushuncalarni o'zbek oilalarda “harom-halol-uvvol” gunoh, savob shuningdek nonni oyoq ostiga tushushini, suvning iflos qilinishi jonivorlarga shovqatsizlik munosabatda bo'lish

dav-daraxtni sindirish va boshqa xalq orasida yuradigan tabiiy ko'nikmalar asosi rolni o'ynaydi.

O'quvchilarda tabiatni muhafaza qilishga doir asosiy tasavvurlarga ega bo'lishi kerak: Tabiiy boyliklardan (xususi o'smirliklardan)atrof muhitdan va atmosferadan oqilona foydalanish, ekologiktarbiya ,tabiatni o'rganish bo'yicha mustaqil ishlarning har-xil shakillardanfodalanishnitalab qiladi. Buesa o'quvchilardaekologiyahaqida tushuncha hosil bo'lishiga ko'maklashadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy islohatlarning yagi bosqichiga o'tayotganekanmiz fan madaniyat va monoviyat taraqqiyotga har jihatidan o'z'tasirini o'tkazishi lozim. Bu esa o'sib kelayotgan yosh ovlodni sharqona ahloqodob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topishi uchun ular ta'lim-tarbiyasining milliy tarizda shakillantirish asosiy o'rinda turadi.

Shu o'rinda tabiat muhafazasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim malumotlarni keltirib o'tish mudaddir jumladan Latviyada maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda tabiatga hurmat bilan qarash unga nisbatan estetik hissiyotni o'yg'otish tajribalari olib borilib ijobiy harakatlarga erishilgan.Bolalar bog'chasida "yashil pasponlar"tugaragi safarbar qilingan.

O'quvchilarda ekologiya xaqida tushuncha berish uchun Respublikamiz maktablarida, Oliy o'quv yutlarida, sanoat ishlab chiqarish korxonalarida, jamoat xojaliklarida, madaniyat uylarida kabi joylarga ekispiditsiyalar uyushtirilsa o'qychilarda ekologiya va tabiat haqida tushunchalar xosil bo'lishioga olib keladi. Shuninigdek tabiat muhofazasi talqin etiladigan kechalar tashkil qilinib unda o'quvchilar bioligik omillar bilan muloqotni o'tkazib turilsa, shuningdek hayvonot hamda qushlar dunyosi bilan tanishtirish, maktab hovlilarda har xil tajribalar uyishtirish,o'quvchilarda tabiatga nisbatan ishtiyoqinioshiradi!

Biz o'quvchilarda ekologiya tushunchalarini xosil qilish uchun avvalo siz va biz yashab turgan tabiat haqida tushuncha berishimiz kerak.

Shundan so'ng inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni qadimda insonlar nima uchun tabiatni e'zozlash haqida ma'lumot berishimiz kerak bo'ladi.

Tabiat–keng ma’noda butun borliq-olam va uning xilma-xil shakllari: tor ma’noda –kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo’lgan atrof tabiiy muhitdir.

Inson esa – tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgizuvchi individ!

Biz o’quvchilarga aynan mana shunday ekologiyaga bog’liq bo’lgan misollarni keltirish bilan birgalikda Ona-tabiat va inson to’g’risidagi munosabatning bir-biriga bog’liqligini tushuntirish orqali ekologiya haqida tushuncha xosil qilib boramiz.

Shu orqali o’quvchi yoshlarda ona-tabiatga nisbatan mehr muhabbatni uyg’otib borish uchun ularda tabiatga nisbatan o’z oldiga qo’yiladigan ma’suliyatni his qildirib borishimizga asos bo’ladi.

Atrofimizdagi olamni rivojlanish qonunyalari ,tabiat va jamiyat o’rtasidagi aloqalar o’zaro ijobiy va salbiy munosabatlar, yoshlarda ekologik tarbiya ma’daniyatini shakllantirish, tabiat va jamiyatga kiyrakli va oqibatlilik, qolavirsa ma’naviy va vatanparvarlik ruhini singdirish.

Ekologiya ta’lim-tarbiya umum-o’rta ta’limning tarkibiy qismi bo’lib, o’quvchilarga jamiyat va tabiatningo’zaro bir-biri bilan chambarchas bog’liqligi haqida bo’limberadi,o’qituvchilarda atrof-muhidga nisbatan ma’suliyat va ma’daniyat tuyg’usini shakllantiradi.

Ekologik talim-tarbiya masalalarini hol etish uchun quyidagi prinspol g’oyalarga tayanish zarur:

Tabiy muhitni intellektual emosional sezish birligi.

Uni yaxshilashbo’yicha amaliy faoliyat:

Ekologik talim umum o’rta ta’limning tarkibiy qismi sifatida qaralmog’i zarur;

Ekologik talim tizimining uzluksiz bo’lishi, fanlararo bog’lanish bo’lishi.

Ekologik bilim o’quvchilarni muhitga o’rgatish ozodalik ruhida tarbiyalashda muhim vositadir. O’quvchilarning ekologiyadan to’laqonli bilimlarini oshirishda pretmetlar aro bog’lanish asosida tizimni tondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda ekalogik ta'limning asosiy yo'nalishlari qonunlardan iborat:

I-IV siniflarda tabiat va jamiyat hodisalarining sabablarini tushuntirish, ularning o'zaro aloqadorligi jonli va jonsiz tabiat undagi insonning o'rnini tabiat holatiga nisbatan inson ko'nikmasi VIII-IX sinflar tabiat va jamiyat tarixining o'zaro birligi haqida tushunchalar tabiat qonunlarining birlamchiligi va unda insoniyat o'rnini, insonni tabiatga tasiri va aksincha bu o'zaro tasirlarning ko'rinishi shakllari yo'nalishi insoniyat hayotining tabiat tabiiy muhitga bog'liqligi g'oyaviy siyosiy huquqiy tarbia.

Tinchlik-tabiatning himoya qilishning bosh sharti. Bundan tashqari o'quvchilarda mehnat va iqtisodiy tarbia, ahloqiy va estetik ozodalik va jismoniy tarbilar maqsadiga muvofiqdir. O'quvchilarda ekalogik bilimlarni to'liq egallashlari uchun keng ekomuhimlarni umimlashtirib fanlar aro bog'lanishli darslar o'tish, maruza va seminarlar uyushtirish asosiy ro'l o'ynaydi:

O'quvchilarga tabiat va jamiyat o'rtasidagi jadval asosida tushuntirish mumkun.

Ekalogik ma'daniyatni shakillantirishning ma'naviy tarbiyaviy imkoniyatlari

O'quvchilar ongida ekalogik ma'daniyatni shakillantirish uchun eng avvalo ekalogik ma'daniyat haqida o'quvchilarga tushuncha berish to'g'ri uslub bo'ladi.

ekologiya ma'daniyati –umumiy dunyo qarashning tarkibiy qismi bo'lib keng va tor mazmundagi insoniyatning ijtimoiy tarixiy amaliyoti jarayonida atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moddiy ma'naviy qadriyatlar majmuasidir.

Yoshlikdan boshlangan to'g'ri yarbila –bu ekalogik tarbiya bo'lib,u hozirgi kunda

Biz uchun hayot muvot masalasidir.

Oilada o'quvchi yoshlar uchun ekalogik ma'daniyatning hosil bo'lishi uchun eng muhim poydevor hisoblanadi.

O'quvchilardan ekalogik ma'daniyatni shakillantirishda ekalogik yo'nalishdagi mehnat - ekalogik bilimlar asosida qurilgan. Uni amalga oshirishni ayrim tamonlarini quyidagi etoplarda ko'rishimiz mumkin.

1.ekalogik mehnat faoliyatidagi yo'naltiruvchi masalalarni yechish.

2. Mahalliy ekosistemalarni holati haqida axborotlar tinglash va modellashtirish .

Darsdan tashqaridagi ishlar ekalogik jihatdan sof qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish bo'yicha tajribalar o'tkazish.

Maktab "qizil daftari" tashkil etish kabi vazifalarni bajarish biz ekalogik muhitni asrashda o'quvchilar bilan hamnafas tarzda o'z hisamizni qo'shgan bo'lamiz.

Talabalarning amaliy natijalari shuni ko'rsatadiki maktablarda „Yosh ekalog“ to'garagining tashkil etilishi va o'tkazilishi yaxshi samara bermoqda „Yosh ekalog“ to'garagining taxminiy dasturi tuzilib ijobiy natijalarga erishilmoqda!

O'quvchilarda ekalogik madaniyatni va ma'suliyatni shakllantirish va ta'lim berishda faqatgina pedagog o'qituvchilargina emas balki turli xil sohadagi kishilarning hissasi ham kattadir.

Biz o'quvchilarda ekalogik madaniyatni shakllantirishda xalq tajribasiga tayanib yosh avlodga talim va ko'nikma beramiz

O'quvchilarga xalq maqollari fan bilan bog'lab tushuntirishimiz mumkun, jumladan: yoz yomg'iri-ilon va chayon, yozning yomg'iridan qo'rq, qishning qirovidan va hakazo.

Maktabda o'qitiladigan ekalogik tarbiya asosida bialogiya fanlari bilan birga ekalogiya xaqida ma'naviy bilimlarni shakllantirish masalalari qo'yilgan.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida esa ekalogiya tarbiyasi tabiat va jamiyat muhofazasining ilmiy asoslarini taxlil qilishlar faoliyati natijasida atrof muhitda ro'y berayotgan hodisalarning sababi va qonuniyatlari mukammal o'rganiladilar.

Shuhday qilib, ular zimmasiga ya'ni o'qituvchilarga yosh avlodga ekalogik masalalarni va tabiat muhofazasi talimi ,manaviyat saboqlaridan bilim berishlari lozimdir.

Xulosa

Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlari qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari inson ongidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlarda rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat bo'zilatib, tabiatga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishni quyidagi umumiy bilimlar asosida olib borilishi lozim deb topdik:

Birinchidan, kelajagimiz quruvchilari ruhiyatida ona-tabiat go'zalliklarini sevish ulardan zavqlanish hissiyotini uyg'otish;

Ikkinchidan, atrofimizdagi olamning rivojlanish qonuniylari, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi mustahkam aloqadorlik, o'zaro ijobiy va salbiy munosabatlar va uning oqibatlarini tushuntirish

Uchunchidan, yoshlarda ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish, tabiat va jamiyatga tirgaklik va oqibatlilik ma'naviy vatanparvarlik ruhini sindirish, shuningdek o'quvchilarning mehnat qobiliyati va ijodiy faoliyatini oshirish zarur. Demak buning uchun biz o'qituvchi mutaxassislar oldiga hozirgi ekologik vaziyat tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangilashni talab qiladi.

Hozirgi sharoit tabiatga munosabatni yangi darajaga ko'tarish undagi rivojlangan inson va tabiat o'rtasidagi bog'lanishlarni ilmiy texnikaviy sohada qo'lga kiritilgan imkoniyatlar asosida olib borishni o'quvchi yoshlarda yangicha

yondashishga o'rgatib borish, o'quvchilarda yekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirib borishda ahloqiy mexanizmlarni tushuntirish hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning ma'naviy ma'suliyat muammosi bilan yekologik-ahloqiy tarbiyani metodologik vaziyatlari bilan birgalikda uyg'unlashishi zarur.

Haqiqatdan ham yekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigenik, yuridik, estetik pedagogik kabi yo'nalishlar ishida pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb yetadi. Chunki yekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim-tarbiya borish ko'zda tutiladi. Shunday ekan biz o'quvchilarda ekologik mas'uliyatni shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning o'rni mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi umumiy xulosaga keldik. Atrof muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri:

- tabiat va uning ahamiyatini saqlash;
- tabiat muhabbatni rivojlantirishda maktab va oilaning hamkorligi;
- o'z tumani, shaxarini, qishloq va maktab hovlisini ko'kamlashtirishda, hatto sinfonasidagi o'simliklarni ham parvarishga qiziqishlarini oshirish;
- atrof muhit muhofazasi bunda bolaning vazifalari;
- tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarning muomilalari;
- oiladagi maktabdagi tabiatni o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- tabiatga ongli munosabat jarayonida o'quvchilarning dunyo qarashini kengaytirish;

Shu kabi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham uqtirilganidek: "Har bir bolaning to'laqonli rivoj topishi uchun bor bo'lgan imkoniyatlardan to'la foydalangan holda ularning har tomonlama kamol topishlarini ta'minlash lozim".

O'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishdek mas'uliyali ishda o'tmish tariximiz ma'naviyatimiz haqidagi ma'lumotlarga murojat etish, xalq pedagogikasi durdonalaridan unumli foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston". 2012 y
2. I.A.Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent "O'zbekiston" 1997 yil.
3. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" xavfsizlikka tahdid va barqarorlikka shartlari taraqqiyot kafolatlari. Toshkent 1997 yil .
4. I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li.Toshkent "O'zbekiston" 1992 yil.
5. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent 1997 yil .
6. A.Ismoilov. R.Axadov. Ekologik ta'lim-tarbiya. Toshkent. "O'qituvchi" 1997 yil.
7. A.Jabbarov Muloqat. 2000 y.
8. A.Berdimuradova. Sog'lom oila uchun . 1999 y. №3.
9. A.M.Negmatov. Ekologik xabarnoma si. 2000 y.
10. A.Aminov. Xalq ta'limi 1998 y.
11. A.Aliyev. Ma'rifat 2001 y. 13 yanvar.
12. A.Jabbarov. Xalq so'zi. 1998 y. 29 sentyabr.
13. B.G.Qodirov pedagogik ta'lim. №4. 2000 yil.
14. Jizzax ovozi D.Rasulov 1999 yil 1 may.
15. M.Nabiyev. Inson va biosfera 1995 yil. Toshkent. "O'qituvchi".
16. Milliy istiqloq g'oyasi., Asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent "O'zbekiston". 2000 yil.
17. M.Inomova. Pedagogik ta'lim №1 2000 y.
18. O.Abdiyeva. Xalq ta'limi. 1996 y.
19. R.Axadov Ekologik ta'lim tarbiya 1997 yil.
20. R.I.Rahimov. Ekologik ta'lim tarbiya.
21. S.To'rayeva. Xalq ta'limi 2000 y.
22. T.Po'latov. Xalq ta'limi. 1994 y. №3-4.
23. Sh.Fayziyev . Hayot va qonun . 2000 yil №3.
24. Sh.Maxmudova . Fan va turmush. 1997 yil №4 .
25. Q.Odilov . Fidokor . 2001 y. 20 fevral.
26. Yo.Bahramov . Xalq ta'limi . 1994 y. №3-4.
27. E.Turdiqulov. Xalq ta'limi. 2000 y.

Internet saytlari

1. Nature@uzpak.uz.
2. gkp@ars.uz.
3. Ekolog@uzpak.uz).